

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FIL.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MATYAKUPOV SADULLA GAIPOVICH

**HOZIRGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA
DIALOG VA UNING FUNKSIYASI**

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi

filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini
olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya

A V T O R E F E R A T I

Toshkent – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Matyakupov Sadulla Gaipovich

Hozirgi o‘zbek she’riyatida dialog va uning funksiyasi.....3

Матякупов Садулла Гаипович

Диалог и его функции в современной узбекской поэзии.....37

Matyakupov Sadulla Gaipovich

Dialogue and its functions in modern Uzbek poetry.....76

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works82

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FIL.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MATYAKUPOV SADULLA GAIPOVICH

**HOZIRGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA
DIALOG VA UNING FUNKSIYASI**

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi

filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini
olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya

A V T O R E F E R A T I

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.DSc/Fil234 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.tai.uz hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Pardayeva Zulfiya Jo'rayevna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Boltaboyev Hamidulla Ubaydullayevich**
filologiya fanlari doktori, professor

Miliyev Suvon
filologiya fanlari doktori

Jo'raqulov Uzoq Haydarovich
filologiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.FIL.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "29" may soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (99871) 233-36-50; faks (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "10" may kuni tarqatildi.
(2024-yil "10 may" dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.To'xliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., prof.

R.Barakayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.n., prof.

U.A.Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., prof.

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi nazariyasida tushuncha, dunyoqarash va aloqa yaxlitligini anglash, falsafa, ruhiyat hamda tafakkurni bog'lovchi nutq shaklini belgilash, munosabat maqsad va vazifasini aniqlash, badiiy muloqot asosiy yo'nalishlarini ochib berish hamda rivoya texnikasi estetik mohiyatini yoritish bo'yicha boy tajriba to'plangan. Binobarin, lirikada dialog va uning badiiy vazifasini asoslash, muammoni nazariy qonuniyatlar asnosida baholash va badiiy tafakkur mohiyatini oydinlashtirish muayyan ilmiy ehtiyoj zaruratini yuzaga keltiradi.

Dunyo adabiyotida tafakkurda shakllanadigan monologlashgan ifoda dialog hamda jonli so'zlashuv uslubiga mansublik kasb etishi ma'lum. Darhaqiqat, ayni shu jarayonda tavsifiy bayon ustuvorlashadi, shuningdek, she'r tili va ijod ruhiyati hamda matn umumiy mohiyati orasida aloqa vazifasini bajaradigan shoir subyektida o'zga bir mohiyat (shaxsiy kechinma va umumiy kayfiyat, lirik ifoda va ritorik munosabat) raqobati kuzatiladi. Mazkur jarayonda ijodkorlarning dialogdan foydalanish mahorati, adabiy pozitsiyasi, ifoda mazmun-mohiyatini anglashda tahliliy imkoniyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiyotshunosligida kechayotgan islohotlar jarayoni demokratiya va istiqloq haqidagi asriy orzusi va ezgu maqsadlariga birlashadi. Mazkur haqiqatni anglash, millat, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Shiddat bilan rivojlanayotgan jahon hamjamiyatida bu holat tabiiy hodisa ko'rinadi. Bu borada, badiiy adabiyot va unga nisbatan bo'lgan qiziqish va ehtiyoj, uni anglash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot va madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q".¹ Bu vazifalar birinchi galda, badiiy tasvirning o'ziga xosligida, qahramonlarning ma'naviy-intellektual faoliyatida, ruhiy hayotida namoyon bo'layotir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi 637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир" мавзусида Ўзбекистон иждоқор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning 1.“Demokratik va huquqiy jamiyatning ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishi, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.² Lirika tarixi, nazariyasi va poetikasi bo‘yicha jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, University of Indiana, University of Michigan (USA), Istanbul Üniversitesi, Ankara Üniversitesi (Turkiye), Universität Humboldt, Universität Bonn, Universität Frie (Germany), Parij University (France), Cambridje University (Greet Britain), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti (O‘zbekiston)da olib borilgan ilmiy izlanishlar salmoqli ahamiyat kasb etadi.

Lirikada dialog va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida jahon³ adabiyotshunosligida yaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlarida she’riy janrlarga xos poetik shakllanishning ichki va tashqi omillari, taraqqiyot tamoyillari va poetikasi bo‘yicha boy tajriba to‘plangan va quyidagi natijalarga erishilgan:

she’riy nutq XX asr avvalida adabiy jarayon umumiy rivojlanish bosqichlari kesimida asoslangan (Cambrige University); dialog qo‘llanmasi tasvir usuli sifatida paydo bo‘lishi, takomili, odatda, ingliz, fransuz, arab, tatar, boshqird va rus adabiyotlari ijodiy ta’siri bilan bog‘liqligi aniqlangan (Istanbul Üniversitesi, Central Asian Studies Institute, Parij University, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti); XX asr o‘zbek she’riyati evolyutsiyasi, mavzusi, ijodiy metodi, tili, uslubiy xususiyatlari, lirik qahramon va badiiy mahorat masalalari adabiy jarayon tagmatnida o‘rganilgan (Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti); badiiy makon va zamon falsafiy manbalari belgilangan va she’riyatda xronotop namoyon bo‘lish muammosi ilmiy-nazariy tadqiq etilgan (Moskva davlat universiteti, Universität Humboldt, Universität Bonn);

² <https://www.indiana.edu/>; <https://umdearborn.edu/>; https://www.istanbul.edu.tr/tr/_; <https://www.ankara.edu.tr/>; <https://www.hu-berlin.de/en>; <https://www.uni-bonn.de/en>; <https://www.fu-berlin.de/en/index.html>; <https://www.mastersportal.com/universities/684/university-of-paris.html>; <https://www.cam.ac.uk/>; <https://www.msu.ru/>; <https://spbu.ru/>; <https://kpfu.ru/>; <https://www.academy.uz/page/institut-uzbekskogo-azyka-literaturny-i-folklor-akademii-nauk-respubliki-uzbekistan>; www.navoiy-uni.uz

³ <https://archive.org/details/theoriesofstylew00coop>; <https://www.dissercat.com/content/dialog-v-poeticheskome-tekste-kak-proyavlenie-idiostilya-na-materiale-liriki-aa-akhmatovoi-i->; <https://cyberleninka.ru/article/n/dialog-v-lirike-drame-i-proze-osobennosti-predstavleniya>; <http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/15509/1/ufv-2004-07-17.pdf>; <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/612190>; <https://malimetter.kz/korkem-dialog-kyzmeti-mentipologiyasy-adebiitanu-gylymynyn-zertteu-nysanynda/>; <https://massaget.kz/layfstayl/debiet/kkzhiiek/47833/>

jahon adabiyotshunosligida she'riyat poetikasi bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borildi: poeziya taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlash; she'r strukturasi va tasvir vositalari tizimi mohiyatini konseptual yondashuvlar asosida izohlash. Binobarin, jahon adabiyotshunosligida she'riyat poetikasi muammosini adabiy jarayon kontekstida umumlashtirish ilmiy-nazariy ehtiyoj hosil qiladi. XX-XXI asrlar she'riyati ilmiy-nazariy tafakkur tajribasi, adabiy-estetik maktablar an'analari, milliy lirika poetikasida mavjud ijodiy konsepsiyalar, ifoda uslubi, badiiy nutq taqvimini, rivoya texnikasi tizimi, ilg'or shaklii-uslubiy tafovutni aniqlashga mustahkam zamin hozirlaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek she'riyatining turli qirralari, xususan, badiiy psixologizm, obraz va ritm munosabati, hayotni poetik talqin etish taomillari, badiiy xususiyatlari, ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon, xalqona poetik tafakkur, uslubiy izlanishlar, modern she'riyati poetikasi, she'riy turkum tabiati kabi masalalar haqida adabiyotshunosligimizda nomzodlik hamda filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)⁴, fan doktori (DSc)⁵ dissertatsiyalari yaratildi.

⁴ Алиев Б.Р. Ҳозирги замон ўзбек шеърлятида психологизм муаммоси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Қосимов Я. Ўзбек шеърлятида поэтик фикрнинг янгиланиш жараёни: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Афоқова Н.М. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997; Ражабов Д.З. Бадий образ ва ритмнинг ўзаро муносабати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Маматова А. Ўзбек адабиётида сарбаст шеърнинг шаклланиши ва унинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000; Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеърлятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000; Раҳманова С. Ўзбек сонетлари: поэтик структура ва бадий образ: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010; Ҳайитов А. 90-йиллар ўзбек лирикасида анъана ва шаклий изланишлар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Ҳамидова М.Х. Ҳалима Худойбердиева лирикасининг бадий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Қурбонбоев И.А. 90-йиллар ўзбек шеърлятида образлилик: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005; Йўлдошева М. Ҳозирги ўзбек модерн шеърлятининг асосий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Эргашева Ш. Саида Зуннунова шеърлятида ижодкор шахсияти ва lirik қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Ҳамдамов А. Абдулла Орипов шеърлятида халқона поэтик оҳанг: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Жуманиязова Н. Истиклол даври ўзбек лирикасида услубий изланишлар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Холова М. Ўзбек модерн шеърляти поэтикаси: Филол. фан. фал. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Алдашева Ш. 70-90-йиллар ўзбек лирикасида тўртлик, саккизлик ва шеърлий туркum табиати: Филол. фан. фал. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Тажибаева Л. Янги ўзбек шеърляти генезиси ва тараққиёт тамойиллари: Филол. фан. фал. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Урганч, 2022.

⁵ Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш таомиллари ва бадий маҳорат: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Бобоев Т. Олий ўқув юртларида ўзбек шеърляти поэтикаси асосларини ўрганиш: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърлятида психологик тасвир маҳорати: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллар ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърляти бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Шарипова Л. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърляти бадий тараққиётида фольклор: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Умурова Г. Зулфия бадий олами ва поэтик мактаби: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеърлятида индивидуал услуб поэтикаси (У.Азим, И.Мирзо, Фахриёр ва А.Қутбиддин шеърляти мисолида): Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019; Милиев С. Глобал илмий-бадий талқин поэтикаси: филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2020; Юлчиев Қ. Ҳозирги ўзбек шеърлятида макон ва вақт категорияси (кичик lirik шеърлар мисолида): Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2021.

She'riyatda dialog masalasi rus va boshqa xalqlar adabiyotshunosligida muayyan darajada tadqiq etilib, dissertatsiya⁶ va maqolalarda ilmiy jihatdan umumlashtirilgan.⁷ O'zbek adabiyotshunosligida she'riyatda dialog va uning talqin xususiyatlari borasida hozirga qadar yirik ilmiy tadqiqot bajarilmagan. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov tomonidan A.Navoiy lirikasida g'azallardagi muloqot shakllari bo'yicha e'lon qilingan maqolada janr tabiati hamda muloqotning vujudga kelish omillari ilmiy tahlil qilinadi.⁸ Shuningdek, professor H.Boltaboyevning "XX asr adabiyotshunosligida dialogizm va Mixail Baxtinning adabiy-estetik ta'limoti"⁹, A.Qozixo'jayevning "G'azalning serovoz olami"¹⁰ maqolalarida dialogning tarixiy tadriji, xususan, nazmda tutgan o'rni ilmiy-nazariy asoslanadi. Qolaversa, tadqiqotchi Z.Rahmonova o'zining "Adabiyotshunoslikda ijodiy individuallik muammosi (prof. B.Sarimsoqov ilmiy merosi misolida)" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasida adabiyotshunos B.Sarimsoqov ilmiy merosini o'rganar ekan, shunday ta'kidlaydi: "Dialog hodisasi jahon va o'zbek adabiyotshunosligida juda keng tadqiq etilgan. B.Sarimsoqov qayd etgan "g'azal-muloqot" shaklining yangiligi shundaki, ungacha dialoglar faqatgina nasriy va dramatik asarlar doirasida o'rganilgan. G'azallar ham g'oyaviy-mazmuniy, sof shakliy yoki funksional jihatdan tasniflar asosida o'rganilgan bo'lib, nutqiy ifoda xususiyatlariga e'tibor qaratilmagan edi. B.Sarimsoqovning g'azal tadqiqidagi yangiligi, ilk bor mazkur janrning nutqiy ifoda jihatlariga diqqat qaratganida edi. Garchi bunday g'azal-muloqotda tashqi dialog shakli ustunlik qilsa-da, olimning ushbu tadqiqoti keyinchalik g'azal janrida dialogning boshqa shakllari kashf etilishiga yo'l ochdi".¹¹

Shu ma'noda, zamonaviy she'riyatda dialoglarning qo'llanishi hamda uning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir. Zero, dialog badiiy ijod nazariyasi va psixologiyasining eng muhim omili sanaladi. Badiiy asar qaysi tur va janrga oid bo'lmasin unda, asosan, ijodkorning olam va odam bilan muloqoti badiiy in'ikos etiladi.

⁶ Федосеева Е.Н. Литературные диалоги поэтов пушкинской плеяды: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001; Соловьева Е.А. Диалогические основы англоязычного поэтического текста в аспекте его категориальных свойств: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саранск, 2006; Бердникова Т. Диалог в поэтическом тексте как проявление идиостиля (на материале лирики А.А.Ахматовой и И.Ф.Анненского): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2008; Федосеева Е.Н. Диалогическая основа русской лирики первой трети XIX века: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 2009; Дубовскова Е.Н. Лирика Ф.И.Тютчева: поэтика философского диалога: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2010; Аустин А. Стихотворные диалоги Вячеслава Иванова: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2012; Хесарбани З. Парвин Этесами и традиция полемической поэзии (мунозира) в персидской литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2012; Бекбергенова З. Қарақалпақ романларында көркем сөз поэтикасы (1980-2010 жыллар): Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Нокис, 2017.

⁷ Кенжеғараев Н. Абай лирикаларындағы монодиалог түрлері // Вестник КазНУ. Серия филологическая, 2(132). 2011 – Б. 257-260; Яхяпур М., Кошемчук Т. Диалоги в лирике иранской и русской поэтесс: Парвин Этесами и Анны Ахматовой // Филология и человек. - Барнаул, 2019. - № 4. – С. 96-110.

⁸ Саримсоқов Б. Алишер Навоий лирикасида ғазал-мулоқот шакллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент., 2004, - № 4. – Б. 8-12.

⁹ Болтабоев Х. XX аср адабиётшunosлигида диалогизм ва Михаил Бактиннинг адабий-эстетик таълимоти // Филология масалалари. – Тошкент, 2016, - № 4. – Б. 8-14.

¹⁰ Қозихўжаев А. Ғазалнинг серовоз олами // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2009. – № 49.

¹¹ Раҳмонова З. Адабиётшunosликда иждодий индивидуаллик муаммоси (проф. Б.Саримсоқов илмий мероси мисолида): Филол. фан. фал. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2023. – Б. 21.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilayotgan "Turkiy xalqlar adabiyotining dolzarb masalalari: adabiyot nazariyasi, adabiy jarayon, folklorshunoslik, adabiy aloqalar, tarjimashunoslik va metodikani tadqiq etishda innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi dialog nazariyasini mustaqil subyektlararo munosabat tarzida o'rganish, mazkur estetik, poetik hodisa lirik janrlarda ham nutqiy kommunikatsiyaning turli shakl va usullarini hosil qilgan holda matn nutqiy jarayonlarida asosiy o'rin tutishini nazariy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o'zbek adabiyotshunosligida badiiy dialog tarixi va nazariyasi, xalq og'zaki ijodi, mumtoz lirik va epik she'riyatda dialogning o'rni, zamonaviy she'riyatdagi tadriji hamda badiiy funksiyasini belgilash;

dialogning badiiy hodisa sifatida lirik janrlarda nutqiy kommunikatsiyaning turli shakl va usullarini hosil qilishi, munosabatlararo muayyan vaziyat yaratishda asar nutqiy jarayonlarida asosiy o'rin tutishini nazariy asoslash;

lirik janrlarda tovush poetik nutqda faqat alliteratsiya hosil etuvchi ritmik-sintaktik garmoniya emas, balki badiiy dialog shaklini bunyod etuvchi murakkab tizimni vujudga keltirishi, har bir jumla, satr nutq jarayonida faol komponentga evrilib dialogizatsiyani tashkil etishini ilmiy-tasnifiy dalillash;

she'riyatda dialog va ritorik munosabat sintezi, shuningdek, shoir "men"i ham obyektivlashgan mohiyat, ham subyektivlashgan munosabat yaratgan holda nutq poetik muhokama miqyosini kengaytirishini yoritish;

hozirgi o'zbek she'riyatidagi dialogik talqin va estetik taomillar o'zaro munosabatini tavsiflash, badiiy nutq tadriji, rivoya texnikasi uslubiy tafovutini umumlashtirish;

o'zbek she'riyatida dialogik talqin hamda vujudga kelgan struktural o'zgarishlar hamda ijodkor individualligining dialoglarda aks etishi, badiiy dialogning liro-psixologik tasvir takomili va poetik shakl mukammallashuvida tutgan o'rnini ko'rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo, Matnazar Abdulhakim, Abduvali Qutbiddin, Ulug'bek Hamdam, Zebo Mirzo, Guljamol Asqarova kabi ijodkorlar she'rlari tanlanib, dialogik tafakkur talqinining lirik va epik she'riyatda aks ettirilishi tarixiy tadriji yuzasidan Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Sulaymon Boqirg'oniy, Alisher Navoiy kabi allomalar ijodiga ham murojaat qilingan.

Tadqiqotning predmetini ijodi asosiy obyekt bo'lgan shoirlar asarlaridagi dialoglarning nazariy asoslari va matndagi vazifasi, badiiy talqin xususiyatlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, germenevtik va struktural metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dialogning ilk bosqichlarda ijtimoiy mohiyat kasb etgani yoritilib, uning nazariy asoslari, o'rganilish tarixi, adabiy asar, xususan, she'riyatdagi badiiy vazifasi, matn strukturasi ahamiyati nazariy asoslangan;

mumtoz lirik, epik va zamonaviy o'zbek she'riyatida badiiy nutqning dialogik talqini, stilistikasi, kompozitsion o'ziga xosliklari, she'riy nutq hosil qiluvchi vositalar hamda ularning poetik tafakkurdagi o'rni aniqlangan;

she'riy dialogda muallif, lirik qahramon va o'quvchi aloqasi, tafakkur dialogizatsiyasida "o'z" va "o'zga" ovozi, ritorik munosabat va murojaat, ruhiyat taftishi hamda tasdiq – inkor – tasdiq bog'lami holatga mos nutq uyg'unligidan iborat bo'lishi ochib berilgan;

lirikada monolog hamda dialog orasida mustahkam rishta mavjud bo'lib, adresat-adresant aloqasi bir-birini to'ldirishi va ushbu jarayonda tahlil malakasi grafik belgi, tovush, ovoz va ifoda reaksiyasiga yo'naltirilgan holda muloqot tabiati dialogik vaziyatni voqelikka aylantirishi yoritilgan;

she'riy nutqda so'zlashuvning javob talab etadigan yoki badiiy tugalligini anglatadigan omillar, tasvir ruhiyati va ruhiyat tasviri aloqasi hamda dialogizm muammosi, dialog va monolog vazifadoshligi ko'rsatilgan;

dialogik talqinda nutqiy malaka va rivoya usuli yaxlitligi, tasvir hamda tasavvur muqobilligi badiiy muloqotni vujudga keltirishi, lirik ifoda subyekt va poetik tasvir obyekt uyg'unligi, ijodkor individualligi masalalari nazariy dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jahon adabiyotshunosligida dialog nazariyasi to'g'risidagi qarashlar tizimlashtirilgan, tasnif qilingan hamda o'zbek adabiyotshunosligidagi amaliy ishlanganlik darajasi belgilangan;

mumtoz lirik va epik she'riyatda dialogning o'rni va badiiy funksiyasi, nutqiy kommunikatsiyaning turli shakl va usullarini hosil qilishi, asar nutqiy jarayonlaridagi asosiy omillari nazariy asoslangan;

hozirgi o'zbek she'riyatida dialogik tafakkur tadriji, uning asar strukturasi tutgan o'rni, muallif – matn – tinglovchi munosabatlari vazifadoshligi, nutq jarayonida so'zlovchining almashuvi masalasi ochib berilgan;

hozirgi o'zbek she'riyatida muloqot shakllari, shaxsning ijtimoiy-ruhiy ikkilanganligi ritorik munosabatni hosil qilishi, ijodkor individualligi hamda uslubiy va shakliy izlanishlardagi o'ziga xosligi dialoglarda aks etishi ko'rsatilgan;

lirik nutq va uning ichida keladigan dialogni aksariyat metaforalar tizimi sifatida qarash, unda qism orqali butunni, butun vositasida qismni anglash tamoyili, she'riy shakl ichidagi ritmik-sintaktik birliklar orasidagi poetik aloqadorlik poetik dialogizatsiyani vujudga keltirishi dalillangan;

dialogning tarixiy shakllanish jarayonlaridanoq bir qator o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etgani, dialog shunchaki ikki kishi o'rtasidagi jo'n suhbatdan iborat emasligi, uning muayyan shaxs munosabatini namoyon etuvchi bahs-munozaraga qurilganligi kabi nazariy xulosalar umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan usullar, unda foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy va badiiy manbalardan

olinganligi, ilmiy xulosalar qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik va struktural tahlil usullariga asoslanganligi, nazariy mushohada va tavsiyalarning amaliyotda keng qo'llanilganligi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yangi davr o'zbek she'riyatida dialog qo'llash bilan bog'liq poetik mahoratni nazariy aspektda o'rganish, tasvir usuli va ifoda vositasi tajribasini nazariy umumlashtirish darajasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek she'riyati bo'yicha darsliklar, qo'llanmalar, xrestomatiyalar yaratishda, oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida maxsus kurslar tashkil etishda, ma'ruza matnlari tayyorlashda muhim manba vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hozirgi o'zbek she'riyatida dialog va uning funksiyasi muammosi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

istiqlol davri lirikasida nutq shakllaridan foydalanish tizimiga oid ma'lumotlarni nazariy aspektda tadqiq etish bilan bog'liq xulosalardan O'zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan F1-FA-0-43429-raqamli "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" (2012-2016) mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 26-sentabrdagi 363/1-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, yangi davr o'zbek lirikasi poetikasini nazariy aspektda tadqiq qilishga manba sifatida asos bo'lgan;

hozirgi o'zbek she'riyatida dialog tiplari, badiiy funksiyasi, ularning ahamiyati tadqiq qilinishi bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Nukus davlat pedagogika instituti tomonidan 2021-yil 10-mayda tuzilgan 78/14-sonli shartnomaga muvofiq 2021-2022-yillarda bajarilgan "Tayyor ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va tadqiqot ishlarini bajarish" bo'yicha "O'zbek tili (Davlat tili) fanidan adabiy o'qishni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish (umumta'lim maktablarining 10-11-sinflar darsligi asosida)" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Nukus davlat pedagogika institutining 2022-yil 23-sentabrdagi 01-02-20/1658 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqot xulosalari she'riy asarlarning o'ziga xos xususiyatlari, temp va ritm, pauza va uning turlari kabi masalalar yuzasidan nazariy bilimlar berishga xizmat qilgan;

zamonaviy o'zbek she'riyatida dialog bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" telekanalining "Mahalla tongi" dasturi, (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" telekanalining 2022-yil 6-sentabrdagi 01-12-635-sonli ma'lumotnomasi); Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasida "Adabiyot va davr", "So'nmas yulduzlar", "Adabiy portret", "Yoshlar uchun", "Assalom, Qoraqalpog'iston", "Tarixiy shaxslar", "Xalq durdonasidan" kabi ko'rsatuv va eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining 2022-yil 19-oktabrdagi 05-22/602-

sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuv va eshittirishlar ilmiy-ommabopligi ta'minlangan hamda yangi manbalar bilan boyitilgan;

lirikada badiiy nutq, lirik va dramatik tasvir uyg'unligi, ifoda shakllanishida muallif va qahramon nutqi integratsiyasi, adabiy talqinda axborot almashinuvi, shakl va mazmun vazifadoshligi kabi nazariy masalalar tahlilidan Qozon federal universiteti huzuridagi Filologiya va madaniyatlararo aloqalar instituti "Raqamli ta'lim texnologiyalari EduTech" markazidagi malaka oshirish kurslarida keng foydalanilgan (Qozon federal universiteti huzuridagi Filologiya va madaniyatlararo aloqalar institutining 2023-yil 10-maydagi 0.1.2.10.1.01-09/622/2023-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, malaka oshirish kursi tinglovchilarida badiiy asarlarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalar va ularni o'rgatish yuzasidan ko'nikmalarning shakllanishiga, shuningdek, lirik asarlarda dialoglarning qo'llanilishi, adabiyotshunoslikda o'rganilishi xususida nazariy bilimlarning takomillashishiga xizmat qilgan;

lirikada badiiy muloqotni amalga oshirish omillari, adabiy talqinda axborot almashinuvi, shakl va mazmun vazifadoshligi, ijodiy individuallik kabi nazariy masalalar tahlillaridan Turkiya Respublikasi Ankara universiteti "Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar bo'limi"da keng foydalanilgan. Shuningdek, tadqiqotchining "She'riyatda dialog yaratish mahorati" ("Şiirde diyalog oluşturma becerisi" // "2020 Bilge Tonyukuk Yılı" anısına Uluslararası Türk Dünyası Eğitim Bilimleri ve Sosyal Bilimler Kongresi. Bildiri Özetleri Kitabı. – Ankara, 2020; "Forms of Dialogue and Artistic Expression in Modern Uzbek Poetry" // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – USA, 2021. № 3. 2021; "Dialogical interpretation in modern uzbek poetry" Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue 2, February 2022 kabi ilmiy maqola va tezislaridan "Çağdaş Özbek Edebiyatı", "Çağdaş Özbek Edebiyatı: Şiir" fanlaridan bakalavr va magistrantlarga tashkil etiladigan dars mashg'ulotlarida doimiy foydalanib kelinadi (Ankara universiteti "Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar bo'limi" boshlig'ining 2023-yil 24-apreldagi TR-06100 Sıhhiye-Ankara sonli ma'lumotnomasi). Buning natijasida, turk talabalarining o'zbek she'riyatini tahlil qilish malakasining shakllanishi, she'r mohiyatini anglashda nazariy bilimlarining mustahkamlanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 44 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta risola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, ulardan 5 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 259 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari, obykti va predmeti bayon qilingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**She’riyatda dialog va uning nazariy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi faslida “**Adabiyotshunoslikda dialog tarixi va uning nazariy talqinlari**” o‘rganildi. Dialog (yunoncha: diálogos – dialogos: suhbat) ildizlari insonlararo ilk muloqot boshlangan davrlarga borib bog‘lanadigan darajadagi qadimiy hodisa sanaladi. U falsafagacha mavjud bo‘lganidek, “adabiyotgacha bo‘lgan davr” (долитературный период)da ham mavjud edi. Ijtimoiy dialogning dastlabki namunalari Xudo va odam, erkak va ayol, ota va o‘g‘il o‘rtasidagi muloqot tarzida ko‘ringan bo‘lsa, sekin-astalik bilan hukmdor va fuqaro, hakam va mahkum, ustoz va shogird, voiz va tinglovchi kabilar muloqotlari ko‘rinishida tarmoqlanib borgan. Aytish mumkinki, dialogning dastlabki formallashtgan shakllari qadim Gretsiya muhitida, diniy-mifologik, falsafiy, ilmiy, sud jarayonlari bilan bog‘liq muloqotlarda ko‘zga tashlanadi. Qadim Gretsiyaga oid manbalardayoq uning ikki nuqtayi nazar, ikki qarama-qarshi kuch o‘rtasidagi munosabat, ikki qutub orasidagi bahs-munozara ma‘nolariga ham ega ekanligi e‘tirof etiladi. Shu ma‘noda, dialogning tarixiy shakllanish jarayonlaridayoq qator spetsifik xususiyatlarni namoyon etgani ma‘lum bo‘ladi, xususan: *dialog shunchaki ikki kishi o‘rtasidagi jo‘n suhbatdan iborat emasligi; uning muayyan shaxs pozitsiyasini namoyon etuvchi bahs-munozaraga qurilganligi; muloqotning qadimiy shakllaridayoq she‘riy ifoda bilan uyg‘un bo‘lganligi; dialogda mantiq va mushohadaning yetakchiligi.*

Aristotel “Ritorika” asarida notiq va tinglovchi munosabatlari yuzasidan “Dialektika kabi ritorika (so‘z san‘ati) ham ayrim sohalar uchun emas, balki barcha sohalarga aloqador va foydalidir. Ritorika ilmining ishi ayrim odamni biror fikrga ishontirish emas, balki barcha odamlarni (foydali va to‘g‘ri) fikrga qanday ishontirishning usullari, qoidalarini o‘rgatadi... Ritorika – barcha notiqlar (doimo tinglovchilarga, o‘quvchilarga, talabalarga va‘z aytuvchi o‘qituvchilar) uchun juda foydalidir”¹, – deya ta‘kidlaydi. Aristotel dialoglarining xalq ijodi namunalariga o‘xshashligi, adabiyotga yaqinlashuvi bevosita o‘quvchi ehtiyojlaridan kelib chiqqan. U fikrlarining ommabopligini ta‘minlash maqsadida o‘z dialoglarida xalqona iboralar, maqol, naql va matallardan foydalangan. Dialoglarida sillogizm (ikki fikr asosida uchinchi mantiqiy xulosa chiqarish) usulidan unumli istifoda etgani seziladi.

Platon va Aristotelning davomchisi Plotin falsafasining asosiy mohiyati ham Platon qarashlarini talqin etish va yangilashdan iborat edi. Ayrim ishlarida Platon

¹ Арасту. Поэтика. Ахлоки кабир. Риторика. – Тошкент: “ЎзМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 221.

falsafiy g'oyalarining mohiyati, ichki spetsifikasidan ta'sirlangan Plotin xuddi Aristotelga o'xshab ijod namunalari Platon asarlarini asos qilib oldi. Plotin o'z so'zlarini tez-tez so'roq gaplar bilan jonlantirib turadi. O'z tasdiqlari bilan ushbu savollarga javob beradi. Shu nuqtayi nazardan, u platoncha tipdagi dialogni namoyon etadi.

Mutaxassislarning qayd etishicha, XX asr dialog falsafasi va estetikasi deyilganda M.Bubur, F.Edner, I.Levenos va M.Baxtinlar tomonidan ilgari surilgan dialog nazariyasi ko'zda tutiladi. Bularning orasida M.Baxtin dialog nazariyasi hayotiyli, adabiyotdagi go'zallik tushunchasi va so'z san'atiga amaliy jihatdan yaqinligi bilan alohida ajralib turadi. Baxtincha "harakat" tushunchasining arxitektonikasi dialogikdir. Harakat jarayonidagi odamning minimum darajadagi mavjudligi kamida ikki ovoz deganidir. Tilning hayoti, unga yashovchanlik effektini beruvchi energiya esa dialogdir.

Qozoq olimi N.Kenjega'rayev ta'kidlaydiki, "Adabiyotshunoslikda "monolog" va "dialog" tushunchalarining faqat tashqi xususiyatlariga ko'ra qo'llanish funksiyasidan yiroq bo'lishimiz kerak. Monolog – bir kishining, dialog – ikki kishining suhbatidagi degan qoida doirasidan chiqish lozim... Endi monologning dialogik genizisiga teran e'tibor qaratish vaqti keldi... Savol bilan murojaat qilish monolog doirasidagi hodisa bo'lmasa kerak. Unda muallif bilan "lirik men" ishtiroki orqali vujudga kelgan avtokommunikatsiya mavjud... Muallif murojaati faqatgina lirik qahramonga yo'naltirilmaydi, tasavvurdagi o'quvchiga yoki muayyan zamon va davr o'quvchisiga qaratiladi. Real voqelikdagi real o'quvchi bilan birga kelajakka nisbatan ham ahamiyatli bo'ladi. Demak, lirik qahramon so'zining yo'naltirilgan obyekti mavjud. Bu esa she'r dialog asosiga qurilgan deganidir"¹, – deya uni monodialog deb ataydi.

O'zbek baxtinshunos olimi, professor H.Boltaboyev fikricha: "Bu ta'limot (Baxtin ta'limoti nazarda tutilyapti) asosida dialog tushunchasi yotadi, u adabiy-badiiy matnning komponenti sifatida asardagi personajlarning nutqiy muloqotidan iborat. Badiiy matnda dialog muallif tomonidan ishlangan, individuallik kasb etgan, uslubiy jihatdan barqaror verbal shakldagi axborot almashinuvidir... Har bir odam, M.Baxtinga ko'ra, o'z ovozi, dunyoqarashi va tasavvurlariga ega bo'lgan mustaqil subyekt. Shuning bilan birga inson faqat odamlar bilan, o'zi bilan, dunyo bilan muloqotdagina mavjud"².

Adabiyotshunos U.Jo'raqulov M.Baxtinning dialog nazariyasi haqida shunday yozadi: "M.Baxtin dialog nazariyasining yangiligi shundaki, u ayni hodisaning yagona qutb doirasida voqe bo'lish qonuniyatini badiiy asar va undagi inson obrazi tahlili asosida ochib berdi. Ya'ni juftlik hodisalar o'zaro zid holatda dialogiklik kasb etgani holda, yakka holatda ham ichki dialogik struktura va mazmunga ega. Jamiyatda (yoki badiiy asar dunyosida) o'zining muqarrar antipodiga ega odam neytral holatda ham o'zining botiniy antipodi bilan yashaydi.

¹ Kenjega'rayev N. Абай лирикаларындағы монодиалог түрлері // Вестник КазНУ. Филология сериясы. –№2 (132). 2011. – Б. 258-259.

² Болтабоев Х. Адабиётшуносликда диалогизм ва М.Бахтиннинг адабий-эстетик таълимоти // Филология масалалари, 2017. – №2. – Б. 8-9.

Bu hodisa badiiy asarda ichki dialog (mikrodialog) tarzida kuzatiladi... U har qanday holatda, qay shaklda (dialogik, mikrodialogik, polifonik) muloqotga kirishmasin, albatta qarshisidagi “o‘zga” obrazini his qilib turadi...”¹ Ikki adabiyotshunos talqinlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, dialogning bu tipi faqatgina epik va dramatik asarlarda uchraydigan muloqot shakllariga emas, lirik dialog qonuniyatlarini ochishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bir qarashda monologik nutq irod etayotgan, hissiyotlari, voqelikka munosabatlarini lirik ifoda etayotgan lirik “men” monologik pozitsiyada turgandek tasavvur beradi. Ammo unga xos lirik nutq qurilishi va mazmunini sezgir kuzatadigan bo‘lsak, ushbu monologik nutq tarkibi aslida dialogik mohiyatga ega ekanini ko‘ramiz.

Adabiyotshunos B.Sarimsoqovning “Alisher Navoiy lirikasida g‘azal-muloqot shakllari”² nomli tadqiqotida kuzatilgan dialog hodisasi ham, bizningcha, dialogning Jirmunskiy qayd etgan “dramatik dialog” turiga kiradi. Olimga ko‘ra g‘azal-muloqot g‘azal janrining yangi tasnifiy shakli bo‘lib, bunga uning nutqiy ifoda xususiyatlari asos beradi. Mazkur nazariyaga A.Qozixo‘jayeving “Xazoyinul maoniy” devonidagi ilk g‘azal haqida”, “Jism uyi chunkim erur foniy” nomli tadqiqotlarida Navoiy lirikasiga nisbatan samarali tatbiq etilgan. U “Xazoyinul maoniy” devonidagi birinchi g‘azal tahliliga bag‘ishlangan maqolasida lirik asarda ham bir emas bir nechta ovozlari ishtirok etishi, muallif ovozi esa mustaqil pozitsiyada turib, asardagi talqinlovchi, javob beruvchi, munosabat bildiruvchi holatida dialogik jarayonlarni tashkil etishi haqida yozadi.³ Muallif ovozi va birov ovozi o‘rtasidagi dialogni A.Qozixo‘jaye ta’kidlaganidek, ba’zan bir so‘z, ba’zan esa sezilar-sezilmas ishora bajarayotgani bilinadi.

Dialog tarixi va nazariyasiga doir fikr-qarashlarning bir chekkasi Sharq adabiyoti, Sharq mumtoz poetikasi masalalari bilan ham bog‘liq. Ammo bugun afsus bilan aytish mumkinki, A.Qozixo‘jaye keltirgan arabcha manbalarning birontasi o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan. Shu boisdan biz va biz kabi boshqa tadqiqotchilar G‘arb va rus olimlarining dialog haqida fikr yuritgan manbalari bilan cheklanib qolyapmiz. Ta’kidlash lozimki, tahlil va xulosalar, lirik asarlarda dialogning juda ko‘plab shakllari uchrashi, uning poetik sintaksis jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligi, she’riy asarning retseptiv jarayonlariga, muallif va qahramon, o‘quvchi va tinglovchi o‘rtasidagi estetik munosabatlarga, ijod va badiiy qabul qilish psixologiyasiga ta’sir etishini ko‘rsatadi. Bir so‘z bilan aytganda, dialog faqat epik va dramatik asarlarda badiiy nutqning tashkillanishida emas, lirik nutqning barpo bo‘lishida ham muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda, u badiiy nutqning ajralmas bo‘lagi, muhim komponenti hisoblanadi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **“Dialog badiiy nutq komponenti sifatida”** deb nomlanib unda, asosan, dialog nazariyasi hamda badiiy nutqdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Insonning tafakkur qilishi mohiyatan dialogik jarayondir. Badiiy dialog mustaqil hayotiy hodisa sifatida shakllangan, qadim davrlarda fan va

¹ Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 75-76.

² Саримсоқов Б. Алишер Навоий лирикасида ғазал-мулоқот шакллари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004. – №4. – Б. 7.

³ Қозихўжа Аъзамхон. Гар ортуқ сўз дедим... – Тошкент: Nurafshon business, 2021. – Б. 117.

falsafaning o‘ziga xos talqinlash vositasi bo‘lib xizmat qilganiga qaramasdan, badiiy tafakkur elementlaridan xoli bo‘lmagan. Badiiy tafakkur sarhadiga o‘tgandan keyin esa tabiiy ravishda badiiy nutqning ichki tarkibida o‘z vazifasini bajara boshlagan. Qayd etiladiki, “**She’riy nutq** – poetik nutq, nazm; muayyan bir o‘lchov (vazn) asosidagi *ritmga ega*, o‘zining *musiqiy jarangi*, emotsional-hissiy *to‘yintirilganligi* bilan farqlanuvchi nutq shakli. She’riy nutqdagi o‘ziga xos *intonatsiya*, musiqiylik *ritmik bo‘laklar va ritmik vositalar*, o‘ziga xos *fonetik va sintaktik* tashkillanish orqali vujudga keladi. She’riy yo‘lda yozilgan lirik asardagi *kayfiyatning hosil qilinishi, kechinmaning o‘quvchiga “yuqtirilishi”*da uning ritmik-intonatsion tomoni muhim ahamiyat kasb etadi...”¹ She’riy nutqqa berilgan ushbu ta’rifning o‘ziyoq: a) uning qadimiyligi, nasriy nutqdan oldin paydo bo‘lganligini, she’riy nutq tarixi; b) ritm va musiqiy jarangdorligi; v) hissiy-emotsional ta’siri, o‘quvchiga yuqtirilishi, kayfiyat hosil qilishi, retseptiv funksiyasi, kommunikativ funksiyasi; g) fonetik (shakliy) va sintaktik (mazmuniy) uyg‘unlashuv natijasida maydonga kelishi; d) mazmunning shakl, shaklning mazmun vositasida yetkazilishi kabi eng muhim tarkibiy xossalari, ichki komponentlari haqida tasavvur beradi.

Xorijdagi nazariy manbalarda “badiiy nutq” – “poetik nutq” (поэтическая речь), “badiiy nutq” (художественная речь), “she’riy nutq” (стихотворная речь) singari turlicha istilohlar bilan ataladi. Badiiy-estetik nuqtayi nazardan: “Badiiy nutq (речь художественная) – (poetik nutq) til estetik funksiyasini realizatsiya qilish. Badiiy nutq spetsifikasi uning har bir elementiga xos mazmun-mohiyatni maksimal darajada aks ettirishida. Xalq og‘zaki ijodiyotida shakllanadi”², tarzida ta’riflanadi. She’riy nutq esa: “Poetik nutq – bu aks ettirishning o‘ziga xos turi. U nasriy kommunikatsiya shakllaridan farq qiladi. She’riyatda hissiyotni uzatish, obrazlar yaratish, o‘quvchida muayyan assotsiatsiya hosil qilish uchun turli-tuman uslub shakllari, adabiy figuralardan foydalaniladi”³, deb xarakterlanadi. So‘z ichki jarayonlariga xos dialogik uyg‘unlik aynan muloqot jarayonidagi dialogga asos bo‘lib xizmat qiladi. Natijada kommunikatsiya jarayoni maydonga chiqadi, “ijtimoiy hayotda fikrlar almashinuvi”⁴, ya’ni dialog vujudga keladi. Buni “men” (muallif, lirik qahramon) tomonidan aytilishi yoki aytilgan poetik so‘zning “boshqa” tomonidan qabul qilinishi tarzida tushunadigan bo‘lsak, badiiy dialog badiiy nutqning eng muhim komponenti ekani to‘g‘risidagi haqli xulosaga kelamiz.

Masalan, shoir Abdulla Oripovning:

Jahldor tabiat endi yuz o‘girdi,
Boqmadi chopsak ham yig‘lab ortidan.
Tirik ot o‘rniga yog‘och ot berdi,
Uyni esa berdi, *yerning ostidan*...⁵

¹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 353.

² Большой энциклопедический словарь/<https://literaturologiya.academic.ru/510/%>

³ <https://xn--870-iddfg5dar7d.xn--p1ai/faq/cto-takoe-poeticeskaya-rec-kratko>

⁴ Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1990. – С. 135.

⁵ Оripов А. Йиллар армони. Шеърлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 82.

satrlaridagi “tabiat”, “yog‘och ot”, “yer ostidagi uy” so‘zlari to‘laligicha istioradir. Bu so‘zlar bir vaqtning o‘zida muallif, lirik qahramon va keng o‘quvchilar ommasini ham qamrab oladigan, ularda qo‘rquv assotsiatsiyasini uyg‘otadigan metaforalar bo‘lib hisoblanadi. Ajratib ko‘rsatilgan istioraviy elementlar muallifning o‘z-o‘zi lirik qahramon va o‘quvchi bilan polifonik munosabatga kirishuvini ta‘minlagani ma‘lum bo‘ladi. She‘riy parchani umumiy holatda, nisbiy mustaqil badiiy matn deb olsak, u mustaqil holatida badiiy nutq yoki she‘riy nutqni tashkil etadi. Uni metaforalar tizimida tahlil etganimizda esa dialog badiiy nutqning muhim komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda qism orqali butunni tushuntirish, badiiy talqin etish, poetik dialogizatsiya maydonga keladi.

Rauf Parfining

Tong otmoqda, tong o‘qlar otar,
Tong otmoqda, Quyosh – zambarak.
Yaralangan yer shari yotar,
Boshlarida yashil chambarak...¹

degan mashhur satrlarini she‘riy nutq va uning dialog hosil qilish jarayoni nuqtayi nazaridan tahlil etadigan bo‘lsak, shunday manzara hosil bo‘ladi: 1) ushbu parchadagi kalit gap “Tong otmoqda”. Ushbu gap she‘riy kompozitsiyaning ikki o‘rnida kelgan. Gapning dastlabki ma‘nosi oddiygina xabar. Tun tugab, kun boshlanayotganini bildirib keladi. 2) faqat ikkinchi satrdagi “Tong o‘qlar otar” gapi bilan sintaktik, maromiy, urg‘uli, alliteratsion, omonimik, morfologik va fonetik munosabatga kirishgandan keyin birinchi satr o‘zining oddiygina xabar beruvchilik, ya‘ni darak gaplik xususiyatini lingvopoetik yoki she‘riy nutqlik xususiyatiga almashtiradi. 3) she‘rdagi ikkinchi “Tong otmoqda” gapi endilikda quyosh chiqayotganini bildirmaydi. Aynan tong otayotganini, omonimik tovlanishi orqali esa tong yerni nur o‘qlari bilan o‘qqa tutayotganini bildiradi. Bu gapdagi otmoq sintaktik jihatdan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘q uzmoqqa o‘tar ekan, istioraviylashuv vujudga keladi. O‘q uzishdan olingan qism Quyosh nuriga olib berilib, metaforani hosil qiladi. 4) keyingi satrdagi “Quyosh – zambarak” gapi poetik ma‘noni yanada aniqlashtiradi. Endi nur manbayi to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘q uzish vositasiga aylantiriladi. Bunday poetik “chalg‘ituv” dialogiklashuv natijasida retseptiv jarayondagi metaforik anglamni kuchaytiradi. 5) she‘rdagi oxirgi ikki satrning kompozitsiyaga qo‘shilishi, she‘riy kompozitsiyada sintezni tashkil qilishi bilan masala oydinlashadi. Otayotgan tong – sahar, subhi sodiq bilan uning o‘q otishi o‘rtasida hosil bo‘lgan sintaktik antitezis “Yaralangan yer shari yotar / Boshlarida yashil chambarak” satrlarida sintezlashuvi bilan she‘r maqsadi oydinlashadi. O‘quvchi shoirning bu yerda hech qanday urush manzarasi yoki jang maydoni tasvirini emas, musaffo tong otish jarayonini tasvirilayotganini anglab yetadi. Boshida qonga belangan doka emas, “yashil chambarak” bilan yaralanib yotgan Yer metaforasi uni shunday xulosaga olib keladi. Ikki zidlik tong otishi va o‘q otilishi o‘rtasida ro‘y beradigan dialogik kombinatsiya natijasida she‘riy nutqning poetik nuqtayi nazardan yuksak namunasi maydonga keladi.

¹ Парфи Р. Туркистон рухи. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2013. – Б. 75.

Adabiyotshunos D.Quronov ta'kidlaydiki, "... Adabiy asarning yaratuvchisi – nutq irod etayotgan odam, yozmoq – tasavvurdagi (implitsit) o'quvchiga gapirmoq va aytganlarini so'zma-so'z yozuvda aks ettirib bormoq demakdir. Shunga mos holda adabiy asarning o'quvchisi – tinglayotgan odam, negaki, o'qimoq ham asli yozuvda manguga muhrlangan nutqni qayta jonlantirish va shu asno tasavvurdagi (implitsit) yozuvchini tinglamoq demakdir".¹ Umuman, badiiy nutq tarkibiga ko'ra ko'plab ichki komponentlarga ega. Uning boshqa mustaqil shakli bo'lgan she'riy nutq esa qator individual xususiyatlarni namoyon etishi bilan o'ziga xosdir. Lirikada badiiy muloqotni belgilash ijodkor muddaosi va fikr yuritish malakasi jiplashuviga tayanadi. Muallifning monolog hamda dialogdan foydalanish darajasi tasavvurni muayyan nuqtaga yig'ish, ruhiy holat manzarasi tahlilini teranlashtirish va poetik jarayon imitatsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqotning "**Lirik va liro-epik she'riyatda dialog muammosi**" deya nomlangan ikkinchi bobining dastlabki fasli "**Mumtoz lirik va epik she'riyatda dialogning badiiy vazifasi**"ni o'rganishga bag'ishlangan. Inson tafakkuri muloqot orqali shakllanadi, muayyan muammoga asos, yechim topadi, voqelikka nisbatan munosabatda bo'ladi. She'riyatda dialogik talqin matn mohiyatini idrok etishda katta rol o'ynaydi. Bu borada qadimiy yodgorlik hisoblangan "Irq bitigi" ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, "Fol kitoblarining yaratilishidan maqsad – insonlarning ruhan boyishi, sog'lom muhit yaratish edi... Ta'birchilar g'oyalarni xalqning o'zlaridan olganlar. Zotan, odamning jamiyatda tutgan o'rni qay tarzda bo'lmog'i kerak? Odamlar o'rtasidagi munosabatlar qanday asoslarga qurilmog'i kerak? Odam martaba, obro'-e'tibor, rohatga erishuvi uchun nima qilishi darkor? Ana shunga o'xshash muammolarga folbin va ta'birchilar javob izlaganlar".² Ko'rinadiki, "Irq bitigi"da mohiyatan dialogik ong va tafakkur namoyon bo'ladi.

“Men osmon o'g'li kunduz va kechqurun

Oltin taxtda o'lturib

Shodlanyapman”,

Bilib qo'ying: bu – yaxshi.³

Adabiyotshunos U.Jo'raqulov ta'kidlaydiki, "M.Qoshg'oriyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi "Qish va Yoz munozarasi" o'zbek adabiyotida ma'lum bo'lgan munozara tipidagi asarlarning birinchisidir. Ikki tomonning bahsi asosiga quriladigan bu janrda keyinchalik Yusuf Amiriy "Bang va chog'ir" munozarasini, Ahmadiy "Sozlar munozarasi"ni, Yaqiniy esa "O'q va Yoy" munozarasini yozganlar... Ayni janr tarixiy rivojlanish xususiyatiga ko'ra drama an'alariga emas, Sharqda azaldan mavjud bahs-munozara (dialog) janriga tayanadi".⁴ Epik she'riyatda dialoglarning o'ziga xos namunalarini Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" hamda A.Navoiyning dostonlarida uchratish mumkin. Mazkur dostonlardagi dialoglarda falsafiy konsepsiya mantiqiy izchillikda umumiy mohiyatni

¹ Куронов Д. Талкин имконлари. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2015. – Б. 3.

² Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари 1-жилд (Тузувчилар: Раҳмонов Н., Болтабоев Х.) – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 67.

³ Ирқ битиги (таъбирнома). zyouz.com/books/uzbek_mumtoz_adabiyoti/Irqbitigi (ta'birnoma). – Б. 46.

⁴ Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 28.

birlashtiradi. Vaholanki, adabiy talqinda muqoyasa (monolog va dialog) raqobat hosil qiladigan dunyoqarash bosqichlarini belgilaydi.

O‘limni unutma, ko‘zing, burning u,
O‘zingni unutma, o‘z obro‘ying u.
Maniydan erursen va “manman” dema,
Desa nafs agar “man”, sen ayt: o‘rning u.¹

Yuqoridagi keltirilgan munozalardan anglashiladiki, san‘at va reallik darajasi ijodkor pozitsiyasi ikki bosqichi, subyektiv ibtidodan obyektiv intihoga o‘tish darajasini belgilaydi. Unda tavsif, ta‘rif, tushuncha, so‘z, muqoyasa hamda estetik tanlov markaziy nuqtani aks ettiradi. Adabiyotshunos X.Rasulyev o‘zining “O‘zbek epik she‘riyatida xalqchilik” monografiyasida Navoiy ijodining boshqa ijodkorlarga ta‘siri va muayyan motivlarning an‘anaga aylanishi yuzasidan shunday munosabat bildiradi: “Salohiy badiiy obrazlarni yaratishda, hayotning turli lavhalarini chizishda, qahramonlarning ichki kechinmalarini tasvirlashda buyuk ustoz Navoiydan namuna oladi. Uning qushlar bilan Bulbul orasidagi munozarasi shoirning anchagina mahoratga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu munozara “Farhod va Shirin” dostonidagi Xusrav bilan Farhodning dialogini eslatadi:

Dedi qushlar: na deb holing parishon,
Dedi Bulbul: jonimda dog‘i hijron.
Dedi qushlar: na deb sargashtadursen?
Dedi Bulbul: sitamdin xastadurmen”.²

Mumtoz she‘riyatda ham dialogik talqin mohiyat e‘tibori bilan inson va uning yashash a‘moli haqidagi mulohazalarni badiiy tadqiq etishda asosiy vosita vazifasini bajaragan. Shu ma‘noda, A.Yassaviy, Y.X.Hojib, A.Yugnakiy, T.Farog‘iy, Mashrab kabi adabiyot namoyandalarimiz undan samarali foydalangan. Yaratilgan asarlarda ijodkor nazdidagi ma‘no-mohiyat, uqtirilayotgan pand-nasihati, hayotiy mezon, odam va olam munosabatlari tasvirida dialog muhim badiiy funktsiya bajaradi. Dialogik tasvir hamda tasavvur jipslashuvi badiiy yaxlitlikni shakllantiradi. Ruhiyat tahlili, talqini, tavsifi va taftishi she‘riy idrok sezgisi asosini tayin etadi, “shunga ko‘ra, birinchidan, tilshunoslikdan farqli o‘laroq, adabiyotshunoslik uchun badiiy nutq vosita emas – ayni maqsad; ikkinchidan, badiiy nutqning qanday qurilgani, uning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish asar poetik olamiga kirish uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi”.³ Odatda, so‘z shakli tafakkur moddiy darajasini dialoglashtiradi. Ohang va marom birikuvi, badiiy mazmunni belgilovchi omillar munosabatida voqelik idroki yangilanadi. Mazkur jarayonda badiiy shartlilik ijodiy tasavvurni shakllantiradi. Zero, lirikada so‘z va shakl o‘yini poetik yaxlitlik hosil qiladi. Tushuncha hamda timsol ziddiyati esa estetik qiymatni markazlashtiradi.

Ruhim aytur: “Shariatning ilmin bilib”,
Ilmi birla tariqatning yo‘lin bilib.

¹ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1971. – Б. 123.

² Расулев Х. Ўзбек эпик шеърлятида халқчиллик (XVIII аср ва XIX асрнинг биринчи ярми). – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 26.

³ Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 240.

Sahar vaqtida uyoqliqni odat qilib,
O‘n besh yoshdin qolmish namoz o‘toyin” – der.¹

She‘riyat ko‘ngil va ruh orasidagi ilohiy aloqani qayta tiklaydi. His, kechinma va tuyg‘uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati faqat tahlil jarayonidagina muayyan salmoq kasb etadi. So‘zning ichki mohiyatini esa talqinga moyillik belgilaydi. Nazmning tayanch nuqtasini muhokama ta‘minlar ekan, uning mag‘zini monologlashgan ongning dialogik ko‘rinishi tayin etishi ayonlashadi. A.Qozixo‘jayev ta‘biri bilan aytganda, “Lirik qahramonning g‘azal matnida ko‘rinmaydigan, aslida g‘azal voqeligida mavjud bo‘lgan birovga qarata aytgan gapi o‘sha birovda jim turmaslikni taqozo etadi. U qandaydir munosabat bildiradi. Bu munosabat qanday shaklda yuz bergani g‘azal matnida ko‘rinmaydi, lekin g‘azal voqeligida bor, deb e‘tibor qilinadi. Bu munosabatga javob sifatida ikkinchi jumla yuzaga keladi”.²

An‘analar davomi natijasida, bugungi o‘zbek she‘riyatida ham dialog muallif va qahramon munosabatining o‘zaro birikuvini ta‘minlovchi asosiy vosita sanaladi. Shoirlar bugungi inson va uning ichki dunyosini kashf etishda dialogik tafakkurdan unumli foydalanmoqda. Zero, dialog she‘rda shoir – matn – kitobxon munozarasini tashkil etadi. Ayniqsa, tasvirda “munozara predmeti – falsafiy masaladan iborat bo‘lsa, she‘rga xos meditatsiyaga aylanadi”.³ Shunday ekan, ijod falsafasi va hayotiy mantiq yaxlitlik kasb etgan holda manfaat hamda ehtiyoj ziddiyati poetik nutqni vujudga keltiradi. Badiiy ong shakllangan mazmun miqyoslarini tartibga soladi, chunonchi, ikki istiloh bir-biriga ko‘chishi muqobillik vositasida amalga oshadi.

- Ona, meni nega tug‘ding?
- Yurting uchun.
- Ona, meni nega tug‘ding?
- Baxting uchun...
- Ona, meni nega tug‘ding?
- Zoriqqandan.
- Ona, meni nega tug‘ding?
- Zerikkandan...⁴

M.Yusufning “Qora quyosh” dostonidan olingan mazkur lavhada savol-javob ochiq-tilanishi bo‘rtib turadi. Dialogning psixologik ketma-ketligi anglash ehtiyoji ikki yo‘nalishi bilan izohlanadi: birinchidan, nutqiy munosabat qahramon holat-harakati ifoda uslubini tasdiqlaydi, ikkinchidan, muallif ijodiy niyati obyektivlashtirilgan aloqa manzarasini tasvirlaydi. “She‘riyatning darajasini, ko‘pincha, u yozilgan davr, davrning ijtimoiy-siyosiy-psixologik muhiti belgilab beradi. Demak, davr she‘riyat deb atalmish ko‘zguda aks etadi. Lekin bu aks shoir shaxsi prizmasidan o‘tgan mahsuldir. Shu bilan birga, she‘riyat nafaqat shoir yoki

¹ Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари 1-жилд (Тузувчилар: Раҳмонов Н., Болтабоев Х.) // Сулаймон Боқирғоний. “Боқирғон китоби”дан. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 186.

² Қозихўжаев А. Ғазалининг серовоз олами // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2009, – № 49.

³ Круглова Т.С. Лирический диалог как способ эстетического самоопределения русского символизма // Вестник КГУ им. Н.А.Некрасова, – № 4, 2009. – С. 39.

⁴ Мухаммад Юсуф. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 154.

davr farzandi, ayni chog‘da, u bir vaqtning o‘zida ham ichki omil – shoir, ham tashqi faktor – davr kesishgan nuqtalarda tug‘iladi”.¹ Ma’lumki, she’r shoir ruhiy-psixologik holati sintezidir. Ijodkor idrokida vujudga kelgan tuyg‘ular silsilasi lirik qahramon kechinmalarida maromiga yetadi. Turli xil harakat va holat chiziq-lari so‘z – obraz – ruhiyat bir-biri atrofida jipslashib, muallifning borliqqa ijodiy munosabatini ifodalaydi. Axborot sig‘imini idrok sezgisiga yo‘naltiradigan lirikada muloqot shakllari, birinchidan, tasvir va ifodani muayyan estetik markazga yig‘ish, ikkinchidan, shakl va mazmun aloqasini mustahkamlash, uchinchidan, badiiy nutq dinamikasini ko‘rsatish xizmatini bajaradi.

U kim?
Qay yerdan keldi-yu
Qay sori ketmoqda?..
Millati,
rang-ro‘yi,
bo‘y-basti qanaqa uning?
Qo‘llari nima bilan band?
Ko‘nglichi..?²

U.Hamdani “Yangi inson” dostonini ritorik munosabat asosiga quradi: U kim?.. Bir qarashda, savol juda oddiy va jo‘ndek tuyuladi, biroq murojaat asnosida teranlashadigan mantiq kitobxonni og‘ir o‘yga toldiradi. Ta’kidlash joizki, nazmda monolog va dialog qorishiq holatda nutqning shaklda ifodalanish tarzini belgilaydi. Uchinchi shaxs – “men” tasvir ruhiyati daxlsizligini ta’minlaydi. Ohori to’kilmagan his-tuyg‘uni tasvirda manzaralashtirish va falsafiy fikrni ifoda orqali idrok etish jarayoni she’r tabiatini belgilaydi.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida “**Lirikada muloqot shakllari**” masalasi tadqiq qilinadi. O‘zbek she’riyati asrlar davomida rang-barang uslub va shakllarda taraqqiy etib, turli tamoyillarni vujudga keltirgan adabiy-ma’naviy xazinadir. Dialog lirikada ifoda uslubi murakkabligini tayin etadigan vosita hisoblanadi. Garchand, muloqot shakli va tasvirida muallif idroki monologlashgan tizimni hosil qilsa-da, uning asosiy vazifasi (nuqtayi nazar ziddiyati) tasavvur mohiyatini aniqlashga yo‘naltiriladi. Nutqiy ong davr tarixiy-madaniy hayotidan oziqlanadi. Unda ideal obraz va adabiy subyekt orasidagi hamkorlik asosida voqelikka taqlidan yaratilgan hamda realistik mohiyatga yo‘g‘rilgan ramziy-majoziy talqin vujudga keladi.

Erta tong shamoli sochlarin yoyib,
Yonimdan o‘tganda so‘rab ko‘ramen.
Aytadir: Bir ko‘rib, yo‘limdan ozib,
Tog‘ va toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko‘rdim men uni – shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!³

¹ Хамдамов У. XX аср ўзбек шеърини бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Филол. фан.д-ри ... дисс. (DSc) ... автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 13-14.

² Хамдамов У. Эски дунё ва янги мен. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 362.

³ XX аср ўзбек шеърини антологияси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 11.

Cho‘lponning mashhur “Go‘zal” she‘ri yaxlit holda dialogik munosabatlar asosiga qurilgan deyish mumkin. Adabiy talqinda shoir lirik “men”i vaziyatni oydinlashtirish niyatida yulduz, oy, quyosh hamda shamol bilan muloqotga kirishadi. Maqsad – sirli-jozibali ma‘no kasb etayotgan go‘zallik qiymatini aniqlashdan iborat. Mantiqiy ta‘kid (oydan-da go‘zaldir, kundanda go‘zal) muntazam takrori yashirin mohiyatni yanada quyushtirish barobarida ifoda aniqligini ham ta‘minlaydi. She‘rda monologik ongning dialogik munosabatlarga ko‘chishi ham joriy holat bilan tavsiflanadi. Bu o‘rinda uslubiy xilma-xillik bilvosita va bevosita janr imkoniyatlarini belgilaydi, ichki vazifadoshlik taqsimoti esa aynan badiiy yaxlitlikni tayin etadigan yetakchi xususiyatlarni belgilaydi.

- Mendan so‘rasalar ne deyman?
- Degin, ko‘rganim yo‘q, kelmadi.
- Meni qiynab so‘rasalar-chi?
- Degin, ko‘rganim yo‘q, kelmadi.¹

Gradatsiya usulida rivojlantirilgan parchada dramatism tabiiyligi saqlanadi. Dialogning kechishi hayotiy mantiqni yashirishga intiladi hamda so‘zlashuv tili ifoda illustratsiyasini namoyon qiladi. Ohang yordamida to‘ldirilgan ham ijtimoiy, ham tavsifiy taqsimot tasvirda asosiy o‘ringa ko‘tariladi. Shartli maneradan mahrum talqinda muallif “men”ini sharoit taqozosiga ko‘ra o‘zgacha ifodalashga moyillik kuzatiladi. Ijodkor bayoni va qahramon nutqi o‘rtasidagi mushtaraklik ong hamda tuyg‘u uyg‘unligidan mustahkamlanadi. “Ijod onlarida adresatni e‘tiborda tutish talabi o‘quvchi omma didi, talab-ehtiyojlariga moslashish degani emas. Chinakam ijodkor adresatning didi, farosatini yuqori baholashi, uning ijodiy imkoniyatlariga, asarni o‘qish payti o‘ziga hammuallif bo‘la olishiga ishonishi lozim...”² Shu o‘rinda aytish lozimki, shaxsning ijtimoiy-ruhiy ikkilanganligi ritorik munosabatni hosil qilishning eng qulay usuli, unda dramatik vaziyat badiiy ma‘no-mazmun vobastaligini aniqlovchi estetik talqin predmeti darajasiga ko‘tariladi. Binobarin, tasdiq inkorni taqozo etmasligi tasavvurni reallashtiradi. Ritorik murojaat keskinligi timsoliy munosabatlararo ziddiyatni teranlashtiradi. Vaholanki, obrazda dunyoqarash tafovuti (ijodkor-kitobxon) uyg‘unlashar ekan, tushuncha ishlatilish sathi badiiy yaxlitlik kasb etadi.

- Jannat der: – Xush kelding, ey karam ahli.
- A‘rof der: – Sabr qil, ey alam ahli.
- Bu yerda hech banda javobsiz qolmas.
- Do‘zax der: – Yon endi, muttaham ahli.³

Murojaat zamirida ta‘kid uzluksizligi, ijtimoiy hukm-xulosa keskinligi va munozaraga moyillik aks etadi. Muallif monologidan dialogik ziddiyatiga ko‘chadigan lavhada insonni oliy masnadda ko‘rish istagi mujassam. Aslida she‘riyatda ifoda tugallanmaganligi hamda o‘zgaruvchanligi talqin imkoniyatlarini kengaytirishi e‘tirof etilgan hodisa. Shu ma‘noda, “o‘zga nutqi” tuyg‘ularni

¹ Усмон Носир. Танланган асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1970. – Б. 18.

² Қуронон Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 22.

³ Орипов А. Бедорлик. – Тошкент: Ёзувчи, 1999. – Б. 83.

ifodalash barobarida shoirning psixologik jihatdan o‘z-o‘zini anglash shakliga aylanadi. Muallif bayoniga qorishib ketgan “ichki nutq” shaxs irodasining teran chizgisini mantiqiy jihatdan dalolatlaydi.

- Boshimdan qor erimadi, onajon!
 - Kuyma, senga quyosh beraman, bolam!
 - Ko‘zimdan yosh arimadi, onajon!
 - Sen chidaysan, bardosh beraman, bolam..!
 - Bu bo‘htonlar ichra qandoq yashayman?
 - Sen shoirsan, seni bilaman, bolam!...
 - Ona, yomon sanchiyapti yuragim,
 - Yo‘q-yo‘q...
- Endi nima qilaman, bolam!!!¹

G.Asqarovaning “Onam bilan ko‘zim suhbatini” deb nomlangan mazkur she‘rida ona va qiz suhbatini inson ibtidosi hamda intihosidan bahs yuritadi. Muloqotda asosan “yurak” timsoliga mantiqiy urg‘u beriladi. Adabiy talqinda e‘tiborni tortadigan jihatlardan biri shuki, shoira inson tana a‘zolari orqali (bosh, ko‘z, oyoq, yurak) hayotiy ziddiyatlarning falsafiy teranligini umumlashtiradi. Ritorik ohangning kulminatsion nuqtasi (yo‘q, yo‘q) onaning ojiz holatini yashira olmaydi. Zero, adabiyotshunos Rahimjon Rahmat yozganidek, “She‘riyatda inson yuragining sir-asrori aks etadi. Inson yuragining sirli tomoni shundaki, u dunyoga avval boshdanoq zabt etilgan holda keladi. Shuning uchun non deb yig‘lamaydi u, obro‘ deb o‘kinmaydi. Yurak – g‘oyibdan kelib ichimizga o‘rmashgan elchi. U, alaloqibat, o‘sha g‘oyibning irodasiga bo‘ysunadi. She‘riyat esa ichimizdagi elchilarning xos suhbatidir”.²

Ta‘kidlash kerakki, lirikada dialog qo‘llash murakkab masala. Garchand, nutqiy munosabat ifoda yo‘siniga bo‘ysunib yaxlit tarzda monologik matnga kirsada, ijodkor kechinmasi va qahramon bayoni bir-biriga nisbatan qarama-qarshi pozitsiyada turishini unutmash lozim. She‘riy idrokda muallif va lirik qahramon o‘zaro aloqaga kirishadi. Tafakkur dialogizatsiyasida “o‘z” va “o‘zga” tovushlar tartibi anglashiladi hamda unda muloqot o‘tkazish imkoniyati asosiy planga chiqadi. Uzviy jarayon insonlararo munosabat, ritorik ohang yoxud tasvir va ifoda muqobilligi asnosida namoyon bo‘ladi. Hissiy idrok “muallif – matn – kitobxon” uchligiga “men – sen – u” kompleksida yondashuv zaruriyatini vujudga keltiradi. Tasvirda uch o‘lcham tafovuti aniqlikni tavsiflaydi.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**She‘riyatda ritorik munosabat va dialogizm**” deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi fasli “**She‘riy dialogda axborot (tuyg‘u) almashinuvi**” masalasiga bag‘ishlangan. “Badiiy matnda dialogizm muallif va personajlarning fikrlash tipi bo‘lib, badiiy-nutqiy shaklda kommunikativ (muloqotiy) qurilma vazifasini bajaradi, inson ongini shaxslararo muloqotga olib kiradi... M.Baxtinning fikricha, muallif MEN va O‘ZGA dialogida qatnashadi”.³

¹ Asqarova G. Бедор кўнғироқ. – Тошкент: Наврўз, 2003. – Б.59.

² Раҳимжон Раҳмат. Жаннат соғинчи / Ўзбек адабий танқиди тарихи антологияси. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2011. – Б. 486-487.

³ Болтабоев Х. XX аср адабиётшунослигида диалогизм ва Михаил Бахтиннинг адабий-эстетик таълимоти // Филология масалалари. – Тошкент, 2016. – № 4. – Б. 10.

Shu ma'noda, ijodkorning ichki hissiyot boshqaruvi va tashqi muhit bilan o'zaro muloqoti badiiy idrok imkoniyatlarini shakllantiradi. Mazkur jarayon voqelikka nisbatan munosabatli nutq sifatida (men, sen, o'zga) aks etadi. To'g'rirog'i, aniqlik va mavhumlikaro mutanosiblashgan tasvir hamda tasavvur uyg'unligini hosil qiladi. Zero, "Badiiy asar kitobxon bilan muloqotga kirishishi natijasida matn va resipient bir-birini to'ldiradi, boyitadi. Bunday adabiy muloqot jarayonida adresant (muallif) bilan adresat (kitobxon) qatnashadi. Bu jarayondagi dialogiyaviylik muallif tomonidan tavsiya etilgan matnning mazmunini o'zgartirmaydi, balki uni qabul qilishning turlichaligi tufayli matn talqinida mazmunning yangi-yangi qirralari ochiladi".¹

Darhaqiqat, lirikada so'zga yuklatilgan ritorik munosabat tadqiq sahniga chiqqan holda matndagi nozik tuyg'u muallif shaxsiyati va she'r ruhiyatini bir-biriga muqobillashtiradi. Aynan badiiy nutqda tasavvur va g'oya raqobatga kirishuvini inobatga olsak, mazkur masala mohiyati yanada oydinlashadi. Muloqotning kechishida hayrat, zavq, taajjub, istak, murojaat va ularni anglash mohiyatan o'zaro tutashadi. To'g'rirog'i, monologlashgan dialog aloqalari tizimida tasavvur ziddiyatining (mohiyatni tasdiqlash yoki inkor etish) davomiyligi yetakchi tamoyil darajasiga ko'tariladi. "Shoir ijodida onglilik miqyosi adabiy dastur hamda davr ruhiyati doirasida kechadi... Ijodkor ijodiy izlanishi, materiya qamrovi va kelajakka payvandlangan quvvat-hofiza talqin subyektivizmini tayin etadi"², deya ta'kidlaydi rus adabiyotshunosi M.Y.Polyakov. Shu ma'noda, A.Oripov ijodida falsafiy mushohadalarga ega bo'lgan turli mavzulardagi dialog asosiga qurilgan she'rlarni uchratamiz. Xususan, shoirning "Ajrim" she'rida ota-bolaning savol-javobi orqali insoniyat uchun eng muhim qadriyatlar sanalgan do'stlik, vafo va sadoqat masalalari haqida mushohada yuritiladi:

Dunyoning yarmini sayr etdi o'g'lon,
Kelib otasidan so'radi ajrim:
– Chin do'st topolmadim, nega ,otajon?!
Ota esa jim...
– Nega savolimga bermaysiz javob?!
O'g'lon turar edi nolakor, haqir.
Ota javob berdi uh tortib shu tob:
– Sen ham bor narsani axtar-da axir!..³

Hayot haqiqati bilan qalb haqiqatining uyg'un sintezi, davr psixologiyasi bilan qalb manzaralarining omuxta ifodasi A.Oripov she'rlaridagi falsafiy-psixologik talqinning o'ziga xos ko'rinishidir. Ushbu tamoyilning qutlug' samarasi sifatida psixologik holatlar, kayfiyatlar silsilasidan hayotning ma'nosi, tiriklikning mohiyati xususidagi falsafiy ma'nolar kelib chiqadi.

Necha cho'llar oshib, daryolar oshib,
Bir kun kirib keldi Makkaga karvon.

¹ Болтабоев Х. XX аср адабиётшунослигида диалогизм ва Михаил Бахтиннинг адабий-эстетик таълимоти // Филология масалалари. – Тошкент, 2016. – № 4. – Б. 12-13.

² Поляков М.Я. Вопросы поэтики и художественной семантики. – Москва: Советский писатель, 1986. – С. 262.

³ Оripov A. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001. – Б. 335.

Dengizga yetishgan jilg'adek shoshib,
Ummatlar yo'l oldi Ka'baga tomon.
Ularning barchasi mo'ysafid edi,
Asoga tayangan nuroniy boshlar.
Kimdir hayrat bilan ularga dedi:

– Hajga kelmaydimi sizlarning yoshlar?¹

She'riyatda dialog va monolog muvozanati estetik omildan badiiy konsepsiyaga o'tadigan ko'prik vazifasini bajaradi. Rivoya texnikasi va adabiy til kesimida shakllanadigan badiiy ifoda malakasi badiiy g'oyani tavsiflaydi. Ziddiyat hamda uyg'unlik tushunchaning muayyan ikki qirrasini bo'lib, tafakkurning dialoglashgan mazmuni esa tuyg'u, idrok sezgisini mantiqan asoslaydi. Aniqrog'i, aql va imkoniyat murosaga kelishi ijodkor subyektiv munosabati hosil bo'lishiga zamin hozirlaydi. Unda so'z va tasvir, tushuncha va tasavvur, matn va konsepsiya aloqasi badiiy nutq tipini tartibga solishga intiladi.

E.Vohidovning "Zamin sayyorasi" she'rida inson va zamin orasidagi dialog teran falsafiy mushohadalar umumlashmasiga qurilgan:

– Ey zamin!?

Bitmayin ne ishing qolgan?

Betinim aylanib joning halakdir.

– So'rma,

Men sho'rlikni shu kuyga solgan –

Tiriklik ishidir,

Charxi falakdir...²

Adabiy talqinda lirik ifoda subyekt va tasvir obyektini bir-birini taqozo etadi. Shu sababli ijodkor pozitsiyasi bevosita hamda bilvosita hamkorlik munosabatini tavsiflaydi. Tasavvur asnosida she'riy qahramon shaxsiyati muallif dunyoqarashi bilan to'qnashadi. Natijada dialog ifoda vositasi sifatida harakatdagi badiiy voqelikni boshqaradi. Doimiy o'zgaruvchan ma'no hodisasi aslida g'oyaviy-estetik mohiyatni aniqlashga xizmat qiladi. Unda maqsad va vazifa badiiy nutq o'ziga xosligini ta'minlagan holda muloqot shakli matn darajasini belgilab beradi. Unda so'z falsafa va mantiqni birlashtirib, poetik xususiyat hamda falsafiy umumlashmani markaziy nuqtaga ko'taradi. Muloqot jarayoni ikki rakursda: muallif va kitobxon, odam va olam kesimida kechadi.

Dil dedi: – parchalab-parchalab o'ydim,

Neki bo'lgan bo'lsa taqdirga yo'ydim.

Otashga kelibman yozug'im bilan:

"Men uning sog'inchin, shu zahot tuydim".³

A.Qutbiddin she'ridagi Dil va Jon muloqotida muallif e'tiqod masalasini ko'taradi. She'r darddan yaralar ekan, uning tilini, tabiatini oddiy so'zlar bilan tushuntirish juda mushkul. Shoir o'zi anglagan haqiqatlarnigina she'rga solganda, haqiqiy she'r dunyoga keladi. Adabiy talqinda dil va jon muloqoti illustratsiyasi

¹ Орипов А. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001. – Б. 201.

² Вохидов Э. Асарлар. Иккинчи жилд. Ёз ҳарорати. – Тошкент: Шарқ НМАК Бош тахририяти, 2015. – Б. 91.

³ Абдували Қутбиддин. Бор. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2011. – Б. 39.

falsafiy mushohadani mustahkamlashga xizmat qiladi. Aniqrog‘i, monologik nutqning subyektiv shakli ijodiy mantiqni hayotiy mezonlardan uzoqlashtiradi. Masofa orasidagi tafovut sezim hamda idrok ziddiyatini hosil qiladi. Dramatizm va psixologizm jilg‘alaridan sizib chiqadigan tuyg‘uda e‘tiqod asosiy masalaga ko‘tariladi. Tafsilotdan ko‘ra, uning mohiyatiga ishora mulohazani alohida bo‘laklarga ajratadi.

Tug‘ilganda “ichi bo‘sh idish” –
Kim? – desa, ayt: insondir, inson!
Nima bilan to‘ldirsang uni
O‘sha bo‘lar inson begumon.¹

U.Hamdani qalamiga mansub she‘rda muallif so‘z badiiy quvvat-hofizasini oshirish vositasida unga qo‘shimcha falsafiy ma‘no salmog‘ini yuklaydi. She‘rda betakror rivoya uslubi, bir butun badiiy voqelik ustuvorlashadi. Universal g‘oya va uning yaxlit tasavvurga ko‘chgan ifodasi ijodkor konseptualligini belgilovchi omil bo‘lib, muallif dunyoqarashi hissiy idrokni tartibga soladi. Kitobxon shoir yaratgan tasavvur borlig‘ida ruhiy kechinmadoshlikka erishadi. Badiiy nutqda moddiylashgan tushuncha axborot hamda obraz dialogini vujudga keltiradi.

Adabiyotshunos Suvon Meli ta‘kidlaydiki, “Ilohiy sezgi tirik insonni hech qachon tark etmaydi. Chunki bu sezgi odamning qon-qonida, yaratilishida, fitratida mavjud. Odam, ta‘bir joiz bo‘lsa, shunday dasturlashtirilgan. Oliy dasturchi esa – Tangri taolo. Allohsiz, ilohiy sezgisiz Inson – yorti, chala. Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan “Munojot” ushbu yortilik, kemtiklikni to‘ldirish, butunlik (komillik)ka erishish yo‘lidagi shaxt, ruhoniylavalloning badiiy so‘zdagi tasvir-ifodasi, mujassamidir. Y.E.Bertels yirik so‘fiy shayx Abul-Hasan Xaraqoniy hayotiga bag‘ishlangan “Nur al-ulum” (“Ilmlar nuri”) kitobi haqida, jumladan, shunday yozadi: “Beshinchi bob – dam qalbning Xudo bilan dialog (munojot) shaklidagi, dam monolog tarzidagi qisqa duolaridan iborat”. Demak, Bertels fikricha, munojot qalbning Xudo bilan dialogi, muloqotidir”.²

Qayerga

Ketyapman? – dedim

Xudoga!!!³

G.Asqarovaning “Savol-javob” she‘ri atigi 3 satr, 4 so‘zdan iborat, unda inson hayoti va mohiyati muloqot shaklida aniqlashgan teran mushohada jilvalanadi. Matnda inson ibtidosi hamda intihosi munozaraga kirishadi: unda e‘tirof ta‘kidni to‘ldirish barobarida zug‘um, iddao va hayrat umumlashadi. Odamzod shuuri mushohadasi aynan ritorik ohang manzarasini yaxlit ifodalashga yo‘g‘riladi. Muallif katta savol va uning ta‘rifsiz javobini tadqiq markaziga chiqaradi. Shoir qismati azal-azaldan iztirobni anglash jarayonidan iborat bo‘lib, unga eltadigan masofa ziddiyatlarga ixtisoslashgan. Ammo razolatga qarshi ezgulik maydonga chiqadi, to‘rt so‘zdan tashkil topgan adabiy talqin ijodkor taktikasini oydinlashtirishga ham xizmat qiladi.

¹ Хамдамов У. Эски дунё ва янги мен. – Тошкент: Янги аср алоди, 2018. – Б. 181.

² Милиев С. Глобал илмий-бадиий талқин поэтикаси: Филол фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 98.

³ Асқарова Г. Эркалик имтиёзи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2012. – Б. 267.

Uchinchi bobning ikkinchi faslida **“Dialogik talqinda murojaat stilizatsiyasi”** masalasi ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. She’r – tuyg‘uning voqe bo‘lishi bilan birga shoir va o‘quvchi ko‘ngil kechinmalari, manfaat-ehtiyojlari, hayotiy kuzatish – tajribalari, orzu-istaklari hamda anglangan va anglanmagan mohiyat rishtalarini birlashtirib turadigan ilohiy xilqat. She’r – shoir qalbidan inson ruhiyatiga ko‘chadigan o‘ziga xos dard, undan sizib chiqayotgan ohang umidlarni uyg‘otadi, hissiy idrokka dalda beradi. O‘zgarib hamda tobora teranlashib borayotgan lirik ifoda shoir shaxsiyati va o‘quvchi ruhiyatini o‘zaro aloqa (muloqot)ga kiritadi. She’riyatda shoir kechinmalari orqali qilinayotgan murojaat nihoyatda keng qamrovli bo‘lib, unda ijodkor yoki lirik qahramon ruhiyatiga muvofiq o‘lchov asosiy mezonga aylanadi.

Qayda o‘sding, qayda yashading?

Yaproq, yaproq, aytib ber menga.

Yulqinib o‘zingni tashlading,

Nega, axir, yaprog‘im, nega?..¹

Yaproqqa bo‘layotgan murojaatdan anglash mumkinki, daraxt shoxlaridan uzilib havoda uchayotgan yaproqda shoir qismatni ko‘radi. She’rdagi ruhiyat tasviri va tasvir ruhiyati kitobxon holati bilan uyg‘unlikda yangi ma’nolar ochadi. Adabiyotshunos, iste’dodli ijodkor R.Rahmat ta’kidlaganidek: “Bu she’r kulfat haqida. Shoir yaproq fojiasini anglatish uchun kerakli ifoda yo‘sinini topa olgan – boshiga og‘ir musibat tushgan odamga uning eng yaqin kishisi asosan iztirobli savol ohangida murojaat qiladi. Bunday murojaat zamirida mushkul ahvol qoshida o‘zining ham ojiz ekanligini bildiruvchi ma’no bor”.² Hayotning barcha jabhasida davrlararo shakllanish va taraqqiyotlar bo‘lgani kabi adabiyotda ham mavjud turlar va janrlararo sintez namoyon bo‘ladi. “Dialoglarning nasriy asarlar strukturasi ko‘p qo‘llanilishi voqealar bayonida dramatismni bir qancha kuchaytiradi hamda dramatik va nasriy janrlarni o‘zaro yaqinlashtirib, dramatik tasvir imkoniyatlarining nasrga o‘tishini ta’minlaydi. So‘nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar orqali dialog va uning tuzilishida muallif remarkasi bilan qahramonlar replikasining qo‘llanish doirasi ancha kengayib, ular hatto nazmiy asarlarga ham o‘tayotganligini anglaymiz”.³ Yuqoridagi she’rda shoir murojaati yaproqqa nisbatan bo‘lsa, “Shivirlama menga, ey shamol” deb boshlanuvchi she’rda asosiy murojaat shamolga yo‘naltiriladi:

Shivirlama menga, ey shamol,

Xuddi qalbm yonidan oqma.

Shivirlama menga, ey shamol,

Uzib yaproqlaringni otma.⁴

Har ikkala she’rdagi badiiy detal yaproq va shamolni obraz darajasiga olib chiqishga xizmat qilgan holda ijodkor tasavvuridagi voqelikni aniq his qilish imkonini beradi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov ilmiy obraz bilan badiiy obrazni

¹ Рауф Парфи. Сайланма. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 96.

² Раҳимжон Раҳмат. Адабиётдан чиқиш. – Тошкент: Akademnashr, 2015 – Б. 35-36.

³ Бекбергенова З. Қарақалпақ романларында кәркөм сөз поэтикасы” (1980-2010 жыллар) – Нөкис: Илим, 2016. – Б. 47.

⁴ Рауф Парфи. Сайланма. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 97.

farqlashni shunday asoslab beradi: “So‘z badiiy obrazga aylanishida ham mazmuniy, ham shakliy jihatdan katta estetik yuk (bosim) oladi... Agar ilmiy obraz avval aqlga va aql orqali hisga ta’sir ko‘rsatsa, badiiy obraz avval hisga, his orqali aqlga ta’sir ko‘rsatadi”.¹ Demak, she’riy nutq ruhiy holat va ma’no ziddiyati hosilasi hisoblanadi. Munosabat ziddiyati uyg‘unlashuvi tashbeh betakrorligida bo‘y ko‘rsatadi, mohiyat tuyg‘u-fikr muqobilligiga tayanadi. Dialogda so‘z, ma’no, ohang va marom omuxtalashadi. Uning qo‘llanilish usuli badiiy samaradorlikni hosil qiluvchi yetakchi unsur, unda shakl takomillashuvi ma’no va mohiyatni yangilaydi va uslubning barqarorlashuviga imkon yaratadi. Tafakkurni ifoda qilishda badiiy imkoniyatlar cheksizligi tasavvur miqyoslarini o‘quvchi ongiga ko‘chirishni taqozo etadi.

Shogird xitob qildi ustozga qarab:

– Omadim kelmaydi sira, vo ajab!

Ustoz javob qildi: – Siz ko‘p, omad oz,
Hammaga yetmaydi omad. Shu sabab.²

She’rdagi hayotiy-maishiy muloqot inson hayoti tajriba va sinovdan iboratligini asoslaydi. Omad tushunchasi aslida intilish hamda mashaqqat mahsuli, ushbu tushuncha zahirida mehnat va zahmat aks etadi. Shogird va ustoz suhbatida mana shu azaliy haqiqatni yana bir bor takrorlaydi. Kutilgan savol va mantiqiy javob omuxtalashuvi she’r ruhiyatini belgilaydi. Shafqatsiz hukm-xulosa aniqligi shogird savoliga ma’no-mohiyat kiritadi. Muallif tuyg‘u va mushohada qamrovini sezadi, lirik qahramon pozitsiyasiga ta’sir o‘tkazadi. Bu holat bir tomondan, yengil she’riy sharh harakatini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, mantiq izchilligi va mushohada hayotiylikka ishora qiladi. She’riy idrok dialog ta’sirida yorqinlashadi, ixchamlashadi, o‘zgaradi va aniqlikka erishadi. Ruhiyatdagi nozik tovlanishlarni mantiqiy yakuniga yetkazadigan rivoya texnikasida individual qirralarni badiiy umumlashma darajasiga ko‘tarishga bo‘lgan mayl ustuvorlik kasb etgan holda universal belgi poetik munosabat o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Mazkur jarayon ichki nutqiy bog‘lanishida muayyan estetik salmoqqa erishadi hamda unda g‘oya markazini belgilash va falsafiy hukm-xulosa yaxlitlikka erishadi. Shaxsiyatlararo kechadigan mushohada xilma-xilligi hamda ziddiyati poetik nutq uyg‘unligini ta’minlaydi va o‘ziga imitatsiya hosil qiladi.

Azizim,

Ne uchun inson yaraldik,

Ko‘nglimiz sig‘masa yer-u samoga?

Oh, endi shu qadar muhabbat bilan

Biz qanday yashaymiz bu tor dunyoda?

Biz nechan yaraldik yolg‘on dunyoda?

Azizim, ne uchun maysa emasmiz?..³

Zebo Mirzayevaning “Azizim” she’ri tugal ritorik savollar majmui negiziga qurilgan: “Azizim, Ne uchun inson yaraldik, Ko‘nglimiz sig‘masa yer-u samoga?”

¹ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б. 35.

² Абдулла Ориф. Адолат кўзгуси. – Тошкент: Адолат, 2005. – Б. 72.

³ XX аср ўзбек шеърийати антологияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 237-238.

ruhiy kechinma kardiogrammasi yuksak ehtiros pardalari tarangligi saqlanishiga zamin hozirlaydi. Muallif subyektga murojaat yordamida monologning dialogik xarakterini ochib beradi. Undagi tayanch tushuncha (ishq) tuyg‘u hisobotini yig‘ishga yo‘l ochadi. “Daraxt”, “Giyoh”, “Shamol”, “Sahro” va “Daryo” tabiatdan olingan muqoyasalar aslida ma’naviy-axloqiy sifatni tavsiflash vazifasini o‘taydi. Shuningdek, tasvir quvvat-hofizasini oshirishga sharoit tug‘diradi. Sabab va oqibat rishtasini yoritish ifodaning dialogik shaklini vujudga keltiradi va unda ijtimoiy qatlamga xos xususiyatlar tahlili quyushadi. Bu jarayonda adresat hamda adresant munosabatining manfaat-ehtiyojlarini jipslashtirishni taqozolaydi. Shoir bir paytning o‘zida ham lirik qahramon, ham shaxs ruhiyatini yoritishga muvaffaq bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Ijodiy individuallik va uning dialogda aks etishi”** – deya nomlangan to‘rtinchi bobning birinchi faslida **“Muallif va qahramon nutqi integratsiyasida ijodiy individuallik”** masalasi tahlilga tortilgan. Adabiyot va san‘at hamisha insonni o‘zining fe‘l-faoliyati, hayotiy a‘molini tahlil qilish, shuningdek, tabiat va jamiyat bilan murosada yashash kabi masalalar yuzasidan mulohaza yuritishga undaydi. “Ijtimoiylashgan she‘riyatning ko‘ngildan voqelikka yuz burishi, epik va dramatik tur bilan raqobat hamda o‘zaro aloqa-ta‘sir sharoiti lirik asarning subyektiv tashkillanishida o‘zgarishlarga, lirik subyekt tushunchasining kengayishiga zamin bo‘ldi. Endi she‘rda “lirik men” qatori “o‘zga”ning kechinma subyekt bo‘lishi (“ijroviy lirika”, “personajli lirika”), kechinmani obyekt tasviri yoki tavsifida aks ettirish (tavsifiy lirika, voqeaband lirika) mumkin bo‘ldiki, bu yangi she‘riyatning tasvir va ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi”.¹ Bugungi she‘riyatda dialoglar qo‘llash hamda u orqali olam va odam ya‘ni, inson – tabiat – jamiyat muloqotlari turli xil shakllarda talqin etilmoqda. Ma‘lumki, “Dialog strukturasi nutqning o‘ziga xos tashqi ko‘rinishini saqlash, personajlarning fe‘l-atvori hamda hatti-harakatlarini to‘la ifodalash mazmuni tubdan boyitadi, unga qo‘shimcha ma‘no baxsh etadi. Boshqacha aytganda, asarda ishtirok etayotgan personaj kechinmalarining butun bir yig‘indisi aynan dialogda ayon bo‘ladi”.² Ta‘kidlash kerakki, poetik tilda uslubiy o‘ziga xoslik shartli mohiyatga yo‘naltiriladi. Unda ijodkor ichki kechinmasi va muayyan davr yoki ma‘lum bir jarayon ziddiyati munosabatga kirishadi. Nisbatan yuksak va quyi uslub tamoyillarining birikuvi notiqlik ko‘rsatmasini hosil qiladi. Til aloqadorligi bilan bog‘liq umumiy xossalardan o‘sib chiqadigan nutqiy malaka rivoji ichki (obrazlar tizimi) va tashqi (badiiy mazmun) shakllar uyg‘unligini vujudga keltiradi. Adabiyotshunos U.To‘ychiyev e‘tirof etadiki, “Dialogik nutq (suhbat, intervyu) ikki xil bo‘ladi, biri eposning rivoyachi yo muallif tili mavjud bo‘lgan nasriy asarda rivoyachi yo muallif tili bilan birga ishlatiladi. Ikkinchisi dramada uchraydi, bunda rivoyachi yo muallif tili va ulardagi tasviriylik bo‘lmaydi, chunki dramada dramaturg o‘zini chetga oladi... Ammo proza yo she‘riy epik asarlar (poema,

¹ Хамдамов У. XX аср ўзбек шеърининг бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. (DSc) автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 29.

² Солижонов Й. Диалог ва унинг қурилиши / Кўзгудаги ҳаёт. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2013. – Б. 49.

she'riy roman va boshqalar)dagi dialogik nutq bilan drama (nasriy va she'riy dramatik asarlar)dagi dialogik nutq bir xil narsa emas, shu sababli dialogik nutq deganda faqat proza tilini anglash to'g'ri emas...".¹

U.Hamdamning "Eski dunyo va yangi men" saylanmasidagi she'rlarda shoirning tabiat, jamiyat, olam va odam munosabatlarini dialogik shaklda badiiy talqin qilish orqali o'zini o'ylantirgan dard va nolalari badiiy ifoda qilinadi. Kitobdagi monologik talqin hosilasi sifatida vujudga kelgan she'rlarda o'z-o'ziga nisbatan taftish, tavsif, tahlil va muhokama aks ettiriladi. Shu ma'noda, nutqiy muloqot shakllari badiiy maqsad va talab o'ziga xosligi alohida ahamiyat kasb etadi. She'riyatda dialog va monolog ifoda aniqligini yetakchi usul darajasiga ko'taradi. Semantik-sintaktik munosabatlar tizimi nutqiy ta'sirning ijtimoiy amaliyotini ancha teranlashtiradi. "Badiiy so'z – sehriga burkangan so'z. Uning butun noziklig-u nazokatini birdan, tuyqusdan anglash qiyin, hatto oxirigacha anglab yetish mumkin ham emas. Binobarin, $2 \times 2 = 4$ qabilidagi aniqlik chin badiiy so'zga xos emas. Badiiylik – aniq-noaniq his-tuyg'u va jozib fikrlar majmuyidan tug'iladigan sehrli quvvat, g'aroyib energiyadir".²

Tug'ilish – hijrat,

O'lim esa Vatanga qaytish.

– Unda muhabbat-chi, muhabbat?

– Muhabbat ana o'sha Vatandan esgan sabo!

Vatan sabosi!

Sabo, sabo!

Yuraginga es!³

U.Hamdamning mazkur she'rida ham odatda go'zallik sifatida talqin qilinmaydigan so'z (O'lim) – inson umri poyonini go'zal bir ne'mat ("Vatanga qaytish") sifatida aks ettiriladi. Xuddi shu narsa "Tug'ilish – hijrat" ekanligini badiiy tasdiqlaydi. Lirik qahramonning saboni o'z yuragiga esishini istashi esa insonning bu olamga pok holda "Hijrat" qilishi va yana o'sha "Vatanga" chin sevimli banda bo'lib qaytishni xohlashi bilan izohlanadi. "Modernizmga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obyektiv voqelikning tasviri o'rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Ya'ni bu o'rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o'z-o'zini ifodalashi ustuvor ahamiyat kasb etadi".⁴ Shoirning "Ko'zgu qarshisidagi she'r"ida lirik "Men"larning o'zaro muloqotini anglash mumkin.

Hammasi jonga tegdi,

Tegdi jonga hammasi.

Seni sog'indim cheksiz,

Cheksiz sog'indim seni!

Bolaligim, qaydasan,

¹ Тўйчиев У. Диалогик нутқ // Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 250.

² Мириев С. Глобал илмий-бадий талқин поэтикаси: Филол фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 108.

³ Ҳамдамов У. Эски дунё ва янги мен. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 311.

⁴ Холова М. Ўзбек модерн шеърини поэтикаси: Филол. фан. фал. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – Б. 12.

Qaydasan, bolaligim?
Sendan uzoq tushdim men,
Men tushdim uzoq sendan...¹

E'tibor qilsak, she'ning toq satrlarida lirik qahramon tilidan ko'zguga aytilayotgan mulohazalar juft misralarda mumtoz adabiyotimizdagi tardi aks san'ati qo'llanilgan holda qahramonga javob tarzida aks sado beradi. Shuningdek, ko'zgudagi aks ikkinchi lirik "men" tarzida voqelikka munosabat bildiradi. Bu yerda lirik qahramon va "ikkinchi men"ning samimiy va kutilmagan muloqoti har bir o'quvchini chuqur o'ygaga solishi tabiiy.

A.Oripovning "Aytishuv" she'ridagi ajdodlar va avlodlar muloqotini kuzatar ekanmiz, go'yo dramatik asar o'qiyotgandek yoki teatr sahnasida asar tomosha qilayotgandek bo'lamiz. She'rda tasvirlangan dialog davomida dramatik ifoda hamda uning ta'sir kuchi namoyon bo'ladi. Dialogda ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan buyuk obidalar, amalga oshirilgan olamshumul ishlar ta'kidlab o'tiladi. Avlodlar tomonidan aytilayotgan satrlarda ham go'yoki ajdodlar merosi takomillashtirilib, yangi zafarlarga erishilayotgani ko'rsatilayotgandek. Lekin she'rda shoir ifodalamoqchi bo'lgan maqsad bu emas:

Ajdodlar:

– Bizdan qolgan sho'x daryolar, ko'llar musaffo.

Avlodlar:

– Ularni ham quritgaymiz bir kun, inshollo...

Ajdodlar:

– Biz poroxni xumga tiqdik kashf etgan oni.

Avlodlar:

Xum ustiga o'tirg'izdik bizlar dunyoni.²

Ko'rinadiki, lirik talqinda dramatik shakl uyg'unligi she'ning tasvir va ta'sir imkoniyatlarini oshirgan. Shu bilan birga, lirik asarlarda dramatik muloqotlarni aks ettirishni adabiyotimizda mavjud an'analardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. She'riy ifodada muloqot shakllari tashqi monolog (muallif bayoniga singdirilgan mushohada va hissiyot), ichki mustaqil rivoya (qahramon ongida kechayotgan ruhiy jarayon), dialogik munosabatlar tizimi (subyektlararo aloqa izchilligi) yordamida gavdalanadi. Shu ma'noda, lirik matnda tasavvur va taassurot uyg'unligini ta'minlash aslida uslubiy vositalar mavqeyiga bog'lanib, ifoda dinamizmi takomillashuvida monologlashgan dialog muhim o'rin egallaydi.

To'rtinchi bobning ikkinchi faslida "**Lirik ifoda subyekt va poetik tasvir obyekt uyg'unligi**" masalasi tahlil qilinadi. She'riyatda ruhiy kechinma tafakkur hamda lirik qahramon munosabatlarini boshqaradi. Uning ifodasida badiiy tasvir mohiyati kengayib teranlashgan holda tasvir miqyosi mavhumlashadi hamda o'zgaradi. Shuningdek, ifoda davomiyligi o'z hisobini almashtiradi hamda tayanch nuqtalar o'lchamini yangilaydi. Qolaversa, tahlil vazifadoshligi harakatni keskinlashtirib, tasvirdagi holatni muayyan vaziyatga muvofiqlashtirish bilan birga rivoya subyekt obyektivlashgan talqinni hosil qiladi hamda hissiy-ma'naviy

¹ Хамдамов У. Эски дунё ва янги мен. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 317.

² Орипов А. Танланган асарлар 2-жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001. – Б.104.

bosimni kuchaytiradi. Bu borada, A.Oripov she'riyatida insonning o'zini anglashi, uning fazilat-u illatlari, taqdiri – umuman butun murakkabligi badiiy talqin qilinadi. Xususan, shoirning diniy-ma'rifiy masalalar o'ziga xos tarzda ifoda qilingan "Haj daftari" turkum she'rlaridan biri – "G'iybat" she'rida shunday satrlar uchraydi:

Do'zax yo'llaridan o'tarkan Rasul,
Atrofga ko'z tashlar edi damodam.
Kimdir faryod solib yig'lardi nuqul,
Otashda yonardi o'zga bir odam.¹

Mazkur she'rdagi inson hayoti, umr mohiyati Foniya va Boqiy dunyo mutanosibligida tasvirlanadi. Bu esa insonni o'z hayoti, yashash tarzi, halol-u haromni anglashi kabi masalalar mohiyatini anglashga chaqiradi. Ahamiyat bersak, mazkur she'rdagi shoir asosiy e'tiborni Rasululloh nazarida na faryod solib yig'layotgan ("Kimdir faryod solib yig'lardi nuqul"), na o'tda yonayotgan ("Otashda yonardi o'zga bir odam") odamga qaratmagan. Rasulullohning o'limtik yeb turgan "allaqanday zot" (insoniy qiyofasi yo'q)ni ko'rib uning qismatini tushunmay hayratga tushishi ("– Bu kimdir, hayhot!") kitobxonni yanada taajjubga soladi.

Jabroil aytdikim: – Bunda har kimsa,
Jazosin olgaydir qilmishiga xos.
O'limtik yeguvchi bul banda esa,
Umrin g'iybat bilan o'tkazgan, xolos.²

Ushbu tasvirlarda shoirning yuksak darajadagi tafakkuri va badiiy mahorati aks etadi. She'riyatdagi dialoglar aksariyat hollarda monologik nutq zahirida vujudga keladi. She'r mazmunida esa tafsilotdan ko'ra uning mohiyatiga ishora muhim ahamiyat kasb etadi. Unda ruhiy tahlil quyuqligi va tasavvur maydoni kengligi o'quvchini chuqur mulohazaga chorlaydi. Aslida san'at ifodasi va reallik darajasi muallif pozitsiyasining ikki bosqichi bo'lib, subyektiv ibtidodan obyektiv intihoga o'tish tizimi tahlil malakasini belgilaydi. Unda tavsif, ta'rif, muqoyasa hamda tanlov markaziy nuqtaga ko'chadi:

Qadim donishmandlar demishlar bundoq:
– Uch odamning biri Xizr erur, boq.
Men-ku ishonaman, Xizrdir biri,
Qolgan ikkovi kim? Bunisi jumboq!³

Tushuncha mustaqilligi hamda g'oya muqobilligi asosiga qurilgan she'rdagi muallif va qahramon munosabati yaxlitlikda namoyon bo'ladi. Idrok kaliti – estetik baholash mezoni aynan ijodning hayot bilan uzviy aloqasini dalillaydi. Shoir odatiy qarashlardan badiiy haqiqat hosil qiladi: falsafa hamda mantiq hamkorligi hukm-xulosaning o'ziga xosligini ta'minlagan holda mifopoetik talqin inson ruhiy holati murakkabligini tasdiqlaydi. She'rdagi "Qolgan ikkovi kim?" – o'z-gacha yo'sinda berilgan mazkur savol zalvori o'ta munozarali. Yashirin mohiyatga

¹ Орипов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001. – Б. 216.

² Юқоридаги манба. – Б. 216.

³ Орипов А. Адолат кўзгуси. – Тошкент: Адолат, 2005. – Б. 76.

ko‘chgan ritorik munosabatda ifoda hamda tasvir bir-birini to‘ldiradi. E‘tiborli jihati, muloqot shaklida ham monologik kayfiyat, ham dialogik keskinlik aks etadi. Falsafiy mushohadaning tadrijiy takomili (“Bunisi jumboq!”) ta’sirchanlikni yanada oshiradi. Ifoda tugallanmaganligi esa munozara kitobxon qalbiga ko‘chishiga yo‘l ochadi.

Eshitilar yurak urishim,
Demak, hali aylanmoqda qon.
Do‘stlar, mening tirik turishim –
Qancha gulga keltirar ziyon.
O, bu ne hol?
Bu qanday jazo?
Nega gullar ko‘tarmas suron?
Mening jonsiz vujudim, hatto –
Ko‘p gullarga keltirar qiron.¹

